



**Tadqiqot.uz**

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



**31 MAY  
№28**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
3-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
28-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-3**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
28-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2021**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 28-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 46 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

<b>1. Tojiyev Alisher Sultannazirovich</b> XIVA XONLIGIDA TURKMANLAR HUDUDIIY JOYLASHSHINING TARIXIY TAHLILI.....	7
<b>2. Qo'ziyev Oybek Shodiyech</b> TARIX FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA INTERFAOL O'YINLARDAN FOYDALANISH.....	9
<b>3. Xolqo'ziyeva Sobiraxon Mahmudovna</b> OSHSHURBANIPAL KUTUBXONASI – MUHIM TARIXIY MANBA SIFATIDA.....	10
<b>4. Dehqonov Bahromjon Egamberdiyevich</b> O'QUVCHILARDA TARIXIY TASSAVURNI HOSIL QILISHNING ASOSIY USULLARI.....	12
<b>5. Hayitova Gavhar Pardayevna</b> MAKTABLARDA TARIX DARSLARINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEKNOLOGIYALARI.....	13
<b>6. Namozova Dilnavoz Usmonovna, Yuldosheva Gulixayo To'ynazarovna</b> TARIX DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL O'YINLAR.....	15
<b>7. Sultonov Ixtiyor Abdujabbor o'g'li</b> ZAMONAVIY TARIX DARSII VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	17
<b>8. Нуралиева Хилола Камтар кизи</b> БУХОРО ШАРҚ ДУРДОНАСИ.....	19
<b>9. Ergashev Shohrux Kamoliddin o'g'li</b> RUS -TUZEM MAKTABLARIDA O'QITISH TIZIMI.....	21
<b>10. Abdullayeva Chamangul Sotimovna</b> TARIX DARSLARIDA TARIXIY TASAVVUR VA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH.....	23
<b>11. Mamatvaliyeva Mahmuda</b> O'QUVCHILARDA TARIXIY BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI.....	25
<b>12. Жўрабоев Н.Ю., Мамаражабов Л.</b> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИДА ДЕМОКРАТИК ПРИНЦИ- ПЛАР УСТУВОРЛИГИ.....	27
<b>13. Asqarov Akmalxo'ja Mashrabxujayevich</b> TARIXIY MATERIAL ASOSIDA O'QITISH.....	30
<b>14. Davlatova Hakima Babaydavlatovna</b> FORISH TOJIKLARINING NIKOH TO'YI BILAN BOG'LIQ URF-ODATLARI.....	32
<b>15. Imomaliyeva Xayriniso Choriyevna</b> TARIX DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	34
<b>16. Saida Isoqova</b> “TEMUR TUZUKLARI”DA SALTANAT BOSHQARUVI.....	39
<b>17. Otajonova Shoirsa Sa'dullayevna</b> TEMURIYLAR DAVRI TARIXI TARIXSHUNOSLIGI.....	41
<b>18. Razzoqova Gavharoy Hikmatulloevna</b> MARKAZIY OSIYO – JAHON SIVILIZATSIYASINING AJRALMAS QISMI.....	43
<b>19. Xodjayeva Guzal Asatovna</b> TARIX DARSLARIDA BADIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH.....	45



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

### XIVA XONLIGIDA TURKMANLAR HUDUDIY JOYLASHSHINING TARIXIY TAHLILI

**Tojiyev Alisher Sultannazirovich-**  
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xiva xonligi hududida yashayotgan turkmanlarning tarixiy joylashuvi va unga ta'sir qilgan omillar tarixiy tahlil qilingan. Shuningdek arxiv va boshqa turdagi yozma manbalar o'rganilib keng ilmiy tahlil qilingan

**Kalit so'zlar:** Avaz inoq, Yarmish kanali, Qilich Niyozbiy kanali, Gandumqal'a etaklari, ko'chmanchi, turkman navkarlari.

Muhammad Rahimxon Orol va unga qo'shni chovdirlarga qarshi kurashi natijasida ularning ayrimlari Mang'isgloqqa, ayrim qismi Xiva xonligiga joylashishadi. Xiva xonligi arxivi hujjatlarida ko'rsatilishicha, 1826-1831-yillar chovdirlarning asosiy qismi ikkita viloyatda bo'lgan: Parsanaga va Omonko'li kanali bo'ylab (Xo'jayli viloyatida) yashaganlar. 1810-yil Oroidan Xivaga ko'chib o'tgan chovdirlar o'zlarining oldingi yashagan tumanlariga ketishadi. 20-yillarda chovdirlarning anchagina guruhlari Toshhovuz, Shohobod va Anbarqal'a tumanlarida yashaganlar. 30-yillarda Xorazmga chovdirlarning ko'pchilik guruhlari Mang'ishloqdan ko'chib kelishadi. Ko'chib o'tishlar asosan bir qancha siyosiy sabablardan kelib chiqqan. Qozoqlarning Mang'ishloqlik va Bo'zachilik ko'chmanchilariga qarshi qurolli xurujlari hisobiga hal bo'lgan. 1832-yil Qareling ekspeditsiyasidan keyin 40-yillarda chovdirlarning Mang'ishloqda qolgan qismi Xivaga ko'chib o'tgan bo'lishi mumkin.

1848-yil chovdirlarning yana bir bo'limlari Qushbegiyop pastligidagi Choshtepa tumanida yerlarga o'rnashadi. Ma'lumki, keyinchalik 60- yillargacha chovdirlar ixcham guruhlarda Porsu viloyatiga joylashganlar. Chovdir qabilalari 5 ta urug'dan tashkil topgan; qora chovdir, abdal, bo'zachi, burunjiq va ig'dir. Imralilar janubiy Turkmanistondan Xiva xonligiga Avaz inoq boshqaruvining oxirlarida 1803-1804-yillarda ko'chib o'tishgan va Omonko'li kanali bo'ylab Xo'jayli tumanida yerga ega bo'lganlar. 1804-yillar ular yovmutlar yoniga Oqsaroy Muzqumg'onga, u yerdan esa 1806-yillar Yangiariq tumaniga ko'chirilganlar. Ammo, 20-yillarda imralilarning kichik bir qismi Yangi Ariqda yashagan, qolganlari Toshhovuz viloyatlarida bo'lganlar. Yana imralarning Oqtepa va Qiziltaqir tumanlariga qachon joylashganliklari ma'lum emas ( o'sha yerlarda hozirgacha ularning avlodlari yashashadi). Lekin bu XIX asrning 1-yarmigacha sodir bo'lgan.

Qoradosh qabilasi janubiy Turkmanistondan Xorazmga Muhammad Rahimxon xonligidan oldin, imralilardan keyin ko'chib kelishgan. Arxiv ma'lumotlariga qaraganda, 1825-yillarda Qoradoshlilar Yarmish kanalining pastki oqimi, Ilolli viloyatining shimoliy-sharqiy qismida jiplashgan. XIX asr boshlarida Xorazm aholisi tarkibiga to'rtta qabila: yovmutlar, chovdirlar, imalilar, qoradoshlilar ham kirishgan. Bu davrlarda turkman qabilalarida ali-eli (1873-yilgacha) va takalarning (1856- yilgacha) boshqa qabilalarga qaraganda, Xiva xonligida ahamiyati kata bo'lgan. Ogohiyning ma'lumotlariga qaraganda go'klanlarning bir guruhi 1817-yilda Xiva xonligiga ko'chib kelishgan. O'sha paytlarda go'klanlarga Sul-tonxon hukmronlik qilgan. U o'z odamlari bilan Xiva xonligi qaramog'iga panoh izlab ko'chib keladi. 1826-yilda go'klanlarning yana bir guruhi Ko'kcha va Toshhovuz tumanlaridagi yerlarga joylashdilar. 1830-1831-yillar Xiva xonligi ularga ancha kata yer bo'lib beriladi. Ammo ularning asosiy qismlari janubiy Turkmanistondan Ko'hna Urganchning g'arbiga 1837-yillar ko'chib borishgan. Nihoyat, go'klanlarning janubda qolgan qismi Xorazmga 1847-yil ko'chib kelishadi. Bayoniyning so'zlariga qaraganda, 1848-yil go'klanlarga Xonyop kanali bo'ylaridagi (Ko'hna Urganchdan g'arbda) yerlar beriladi.



Ogohiyning ma'lumotlariga ko'ra ali-eli qabilasi Olloqulixon tomonidan 1830-yillar Qilich Niyozbiy kanali bo'ylariga joylashtirilgan. Xiva xonlarining arxiv hujjatlari dalolat berishicha, ali-eli qabilasining ma'lum qismi Toshhovuz viloyatlarida ham bo'lgan. 50-yillarda ali-eli qabilasi bu ikki tumandan: Qiziltaqir tumani va Shohmurod kanali bo'ylarida yashagan, ayrim qismlari esa eski joylarida qolishadi. Quzmin Qoravayev yig'gan ma'lumotlarga qaraganda, 1855-yil Muhammad Aminxon Seraxs atrofidagi mag'lubiyati va vafotidan keyin ali-eli Atrekdan ko'chib, oldin yashagan joylari Abiverdga qaytib borishadi. 1869-yilda ular Xivaga qaytib borishga majbur bo'ladilar. Biroq takalar Xiva xonligida qisqa muddat 1779-yillarda yashaganlar. Ular yana 1816-yillar yangiariq tumanida bo'lganlar. Muhammad Rahimxon ularga Nayman kanali bo'ylarida Yangiariqdan g'arbdagi yerlarni hadya etadi. Bu yerlarda ularning qancha vaqt yashaganlari to'g'risida bizgacha ma'lumotlar yo'q. Takalarning ancha qismi Xorazm viloyatining g'arbiy qismida Uaz va Gandumqal'a etaklarida joylashganlar. Bu tumanlarda ularning qancha vaqt yashaganlari ma'lum emas. Bu XIX asrning 30-40-yillarida Daudan va Daryoliq hududlarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Takalar bu yerlarda oldindan ham ko'chmanchilik qilgan bo'lishlari mumkin. Bayoniyning hikoya qilishicha, 1848-yil turkmanlar Xonobod tumanida yerlarni egallaganlar, Uazda takalarning qal'asi mavjud bo'lgan. Xiva xonligi arxiv hujjatlarining birida takalarning 1851/1852-yillar Gandumqal'adan boshqa bir tumanga ko'chganlari ko'rsatilgan. Takalar Uazda 1856-yilgacha bo'lganlar, muvaffaqiyatsiz urush natijasida ular yovmutlarni yengib, Axalaga ko'chib ketadilar.

Jadval XIX asrda Xorazmda ancha kata sonlarda turkmanlar bo'lganligini ko'rsatadi. Bu esa ancha cheklangan xulosalar bersih imkoniyatini yaratadi.

Xiva xonligidagi turkmanlarning umumiy soni 30-40 ming oila ya'ni 150-200 ming odam (har oilada 5 odam hisoblansa) bo'lgan. Bularning ko'pchiligini yovmutlar tashkil qiladi, qora yilg'inlilar bialn birga boshqa yovmut qabilalarining soni barcha manbalarda ko'rsatiladi. Ko'pligi jihatidan 2-o'rinda chovdirilar turadi, biroq ularning sonini aniqlashda manbalar o'xshash. Son jihatidan 3-o'rinda hech qanday bahslarsiz imralilar turadi. Ulardan keyin go'lanlar turadi. Xiva xonligi aholisi qatoriga kirgan qabilalarning umumiy ahvoli bir xil bo'lmagan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Хоразм тарихи. I жилд. Урганч, 1996. 225 бет.
2. Брегель. Хорезмские туркмены в XIX веке. М.: 1961.с.6
3. Исо Жаббаров. Жаҳон этнологияси асослари. Т.: “Янги аср авлоди”. 2005, 136-бет



## TARIX FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA INTERFAOL O'YINLARDAN FOYDALANISH

**Qo'ziyev Oybek Shodiyech**

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani

25-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktab o'quvchilariga tarix fanini o'qitishda zamonaviy metod va interfaol o'yinlardan foydalanish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** uzluksiz ta'lim, ko'zgu, ta'lim-tarbiya, o'tmish tarix.

Keyingi yillarda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarning asosini jahon ta'limi standartlariga javob bera oladigan ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuqori samaradorlikka erishish yo'lida amaliy faoliyat olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu -o'qituvchi va o'quvchilarning haqiqatni birgalikda izlashi va o'quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtirok etishidir. Albatta, bu o'rinda o'qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar qo'l kelishi amaliyot ko'rsatib turibdi.

Hozirgi zamon har bir fan o'qituvchisi zimmasiga inson, uning jamiyatdagi o'rni va roliga har tamonlama qarash vazifasini yuklaydi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi a'nanaviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmoq'i lozim.

Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix fani o'zida oliyjanob fazilatlarini mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi.

Bizga ma'lumki tarix-juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi „Ko'zgu“ desak bo'ladi va bu ko'zguga qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir. Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tarix fanida izlanishlar Toshkent 2019



## OSHSHURBANIPAL KUTUBXONASI – MUHIM TARIXIY MANBA SIFATIDA

**Xolqo'ziyeva Sobiraxon Mahmudovna**  
Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani  
50-umumta'lim maktabi o'qituvchisi.  
Телефон: 998 94 304 09 90.  
E-mail: great\_alex11@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dunyoning eng yirik kutubxonalaridan biri bo'lgan Oshshurbanipal kutubxonasining vujudga kelishi tarixi, uning qadimgi dunyo ilmiy bilimlari rivojida tutgan o'rni, ushbu kutubxonada saqlanib, hozirgi kunga qadar bizgacha yetib kelgan manbalar haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** Ashshurbanipal, Ossuriya, Tiglatpalasar, Gilgamish, Mesopotamiya, Midiya, Bobil, Genri Layard, loy taxtacha, Nimrud.

Mesopotamiyaning ilmiy bilimlari, sanati, me'morchiligi, dini, yozuvi va adabiyoti, qadimda ko'pgina sharq xalqlari madaniyati ravnaqining o'lchov mezonini bo'lib xizmat qildi, shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish joiz bo'lgani, biz o'rganayotgan manbalarning aksar qismi moddiy manbaalar bilan birga yozma yodgorliklar-kitoblar, hujjatlar, xaritalar, yozishmalar, xabarnomalar hisoblanadi va albatta, bularning barchasi har yerda emas, kutubxona deya atalmish muqaddas dargohda saqlanadi. Mesopotamiyada ham shunday hujjatlarni o'z bag'riga olgan ulkan kutubxona mavjud bo'lgan. Bu Oshshurbanipal Saroy kutubxonasi bo'lib, u Yangi-Ossuriya imperiyasining so'nggi buyuk shohi Oshshurbanipalning barcha turdagi matnlarni o'z ichiga olgan loy taxtachalardan iborat bo'lgan ulkan kutubxonasi edi. Kutubxona mil. avv VII asrda tashkil qilingan. Oshshurbanipal kutubxonasi qadimgi dunyodagi eng katta kutubxona hisoblanadi [2].

Kutubxona Osten Genri Layard tomonidan 1849-yili kashf etilgan deb hisoblanadi va barcha taxtachalar Angliyaga, Britaniya muzeyiga topshiriladi.

Oshshurbanipal nihoyatda qonxo'r, urushqoq, bosqinchi shoh sifatida tarixda o'z nomini qoldirgan lekin u o'ta darajada qattiqqo'l bo'lishi bilan birga savodli va kitoblarga, olimlarning yozgan ma'lumotlariga qiziqqan shaxs bo'lgan. U o'z huzurida mohir xattotlarni to'playdi, ularga qadimiy matnlarni to'plashni, akkad-shumer tillarida manbaalarni keltirishni buyuradi va buning uchun barcha imkoniyatlarni yaratib beradi. Xattotlar Bobilga boradilar va u yerdagi jamiyati matnlarni ikki xil yozuv, tilda ko'chirib, maxsus xumdonlarda pishirib qaytib keladilar.

Oshshurbanipal ularni bu xizmatlari evaziga juda ham chiroyli tarzda mukofotlaydi hamda endilikda yaratilgan matnlarni saqlash, qo'riqlash va foydalanish uchun xattotlarni o'zlarini mas'ul qilib qo'yadi, shu bilan birga, ularga kutubxonani qo'riqlash uchun kuchli askarlardan ham qo'shib beradi. Shahanshoh naqadar shavqatsiz bo'lgan bo'sa ham, u kutubxona taqdiriga kelganda shunchalik muloyim bo'lib qolar va kutubxonani ko'z qorachig'iday asrab avaylar edi.

Mil. avv 612-yilda Bobil va Midiya qo'shinlari birlashib Nineviya va Osuriyaning qo'shinlari ustidan yurish qilib g'alaba qilishdi va mil. avv 605-yilda yana bir bor qaqshatqich zarba bilan ossur qo'shinlarini kulini ko'kka sovurdilar. Nineviyadagi jang-jadallardan so'ng kutubxona yong'in ostida qoladi va olimlarning ayrimlari ana shu yong'in kutubxonani vayronaga aylangan bo'lishi mumkin degan fikrni olg'a suradilar. Lekin hech bir tadqiqotchi aniq bir dalilni keltira olmaydi. Yuqorida aytganimizdek, kutubxona taxtachalarining aksar qismi Britaniyaning Londondagi muzeyida saqlanadi biroq Britaniya muzeyidan tashqari Iroq muzeyida ham kutubxonaning nodir taxtachalari mavjud [1].

Britaniya muzeyining to'plamlari bazasida Nineviya kutubxonasi to'plami 30.943 "loytaxtachalar" butun "Oshshurbanipal matnlari bo'limi" deb ataladi va alohida katalogi mavjud. Hozirgi kunda to'laligicha tiklangan, ta'mirlangan va oldindan o'zi butunligini saqlay olgan hamda siz borib o'z ko'zlaringiz bilan ko'rishingiz mumkin bo'lgan matnlar soni 10.000 tani tashkil qiladi. Shunisi bilan qiziqki, kutubxonadagi hujjatlar faqatgina loy kitoblardangina iborat bo'lib qolmay, u yerda yana teriga yozilgan, papiruslarga yozilgan matnlar juda oz miqdorda bo'lsa ham topilgan va Britaniya muzeyiga juda "og'ir" ahvolda olib kelib "davolanadi".

1. Azeka yozuvi [3] – loy taxtachaga akkad yozuvida mil. avv 700-yilda yozilgan. Bu taxtacha 1903-yili kashf qilingan bo'lib, 1974-yilga kelib Nadov Na'aman tomonidan "alohida bir bo'limdagi taxtacha" deya e'tirof etilgan. Hozirda Britaniya muzeyida K.6205 + BM 82-3-23,131



son bilan saqlanadi. Bu taxtachada Yahudiylar shohi Azekahning Sanxariv podshosi Hizyiqoga qarshi yurishi va Sanxariv podshosining g'alabasi haqida hikoya qilinadi.

2. Tir Baal bilan Esarhaddon o'rtasidagi shartnomasi [4] – loytaxtachaga akkad yozuvida mil. avv 675-yilda yozilgan. Bu taxtacha XIX asrda kashf qilingan. Britaniya muzeyida K 3500+K 4444 +K.10235 tartib raqami ostida saqlanadi. Bu taxtachada Oshshurbanipalning otasi Esarhaddonning (mil. avv 681-669-yillarda hukmronlik qilgan) Tir Baal bilan tuzgan shartnomasi haqida yozilgan. Bu matnni 1898-tilda Ugo Vinkler “Qadimgi Yaqin Sharq tadqiqotlari” nomli maqolasida tarjima qilib tushuntirib bergan. Sulh haqidagi matn ikkita sopol taxtachalarda o'z aksini topgan. Esarhaddon Eber Narini fath qiladi, jangdan so'ng Tir Baal bilan muzokara olib boradi, unga ko'ra, Esarhaddon bosib olgan yerlaridan bir necha aholi punktlarini – Akko, Dor va Biblusni Tirga beradi.

3. Nimrud taxtachasi, Nimrud – hozirgi Mosul shahri, qadimgi Janubiy Nineviya yaqinida, Dajla bo'yida joylashgan shahar [5], Bu joy Ossuriyaning mil. avv 879-722-yillarda poytaxti bo'lgan, Nimrud taxtachasini o'ziga to'xtaladigan bo'lsak, loytaxtachaga akkad yozuvida mil. avv 733-yilda bitilgan. Bu taxtacha 1873-yili Jorj Smit tomonidan kashf qilingan. Britaniya muzeyida K.3751 raqami ostida saqlanadi. Yozuv Tiglatpalasar III davrida bitilgan. Uning hukmronlik qilgan davrining ilk 17 yilligi haqida batafsil ma'lumotlar mavjud [6].

4. Sargon II Prism A [7] – loytaxtachaga akkad yozuvida mil. avv 710-yilda yozilgan. Bu taxtacha XIX asrda kashf qilingan. Britaniya muzeyida K.1671+K.1668 raqami bilan saqlanadi. Birinchi qismi 1668-yili topilgan, qolgan qismi esa 1903-yili topib tarjima qilingan. Hajmi-6,4x4,4sm dan iborat. Bu loytaxtacha Sargon II ga atalgan va to'laligicha u haqida ma'lumotlar bitilgan.

5. Ammitsadukning Venus matni [8] – asl uzunligi 17.14sm bo'lgan lekin vaqtlar bu taxtachaga ham o'z hukmini o'tkazgan va hozirda 6.75sm qolgan. Kengligi ham xuddi shunday-yozilgan paytida 9,2sm, hozirgi holati 3.6smni tashkil qiladi. Qalinligi 2.22sm bo'lgan va ayni paytda 0.87smni tashkil etmoqda. Bu matn Yangi Ossuriya davriga tegishli bo'lib, Kuyunjikdan topilgan, hozirda Britaniya muzeyida K.160 tartib raqami ostida yashamoqda.

6. Gilgamish dostoni [9] – mil. avv VII asrda shaxsan Oshurbanipal boshchiligida yozilgan butun dunyoga dong'i ketgan afsonaning matni hisoblanadi. U hozirda Britaniya muzeyida saqlanadi, taxtachalarning bir nechtasi ta'mirlangan, yana bir nechtasi qaytadan yozilgan. Unda afsonaviy Uruk podshohi Gilgamish yoki Bilgamishning hayoti, sayohati, qayg'u-g'ami haqida batafsil bayon etilgan.

7. Yerning yaratilishi [10] – 1849-yili Ostin Genri Layard tomonidan parcha-parcha holida topildi, qayta ta'mirlandi va 1876-yili esa Jorj Smit uni tarjima qildi va butun ommaga e'lon qildi. Bu matn faqatgina ilohiyot haqida bo'lib shumer-akkad yozuvida bitilgan. Bu loytaxtacha ham Britaniya muzeyida saqlanib kelinmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar**

1. Johnson, Elmer D. History of Libraries in the Western World. -New Jersey: "The Scarecrow Press", 1970. – P. 36
2. Menant, Joachim. La bibliothèque du palais de Ninive. –Paris: “E'Leroux”, 1880. – P. 33
3. <https://en.wikipedia.org/wiki/AzekahInscription>
4. <https://en.wikipedia.org/wiki/Esarhaddon'sTreatywithBa'alofTyre>
5. <https://en.wikipedia.org/wiki/Nimrud>
6. <https://en.wikipedia.org/wiki/NimrudTabletK.3751>
7. <https://en.wikipedia.org/wiki/SargonII27sPrismA>
8. <https://en.wikipedia.org/wiki/VenustabletofAmmisaduqa>
9. <https://en.wikipedia.org/wiki/EpicofGilgamesh>
10. <https://en.wikipedia.org/wiki/Enly>



## О'QUVCHILARDA TARIXIY TASSAVURNI HOSIL QILISHNING ASOSIY USULLARI

**Dehqonov Bahromjon Egamberdiyevich**

Namangan viloyati Chust tumani

68-son umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Tel: +998995148110

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix fanini o'qitish, o'quvchilarda tarixiy tassavurni hosil qilishning asosiy usullari haqida malumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** tarix o'qitish, tarixiy tasavvur, tushuncha, hodisa, tarixiy dalil, bilim.

Tarix o'qitish tarixiy dalillar haqida aniq obrazlarni va tasavvurlarni yaratishdan boshlanadi. Tarixiy tasavvur bilan tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'langan. O'quvchilarda hodisalar, tarixiy jarayonlar haqida yetarli darajada to'liq va aniq tasavvurlar mavjud bo'lgandagina tushunchalar hosil bo'ladi. Tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning tasavvurlari chuqurlashib borishi natijasida, tushunchalarni shakllantirish uchun zamin yaratiladi. Tushunchalar o'z navbatida tasavvurlarni mazmunan boyitishga yordam beradi. Tasavvur va tushunchalarni hosil qilish metodik usullari ham ko'pchilik hollarda bir – biriga o'xshab ketadi.

Tarix o'qitishda o'quvchilarning ko'z o'ngida o'tmishdagi ijtimoiy hayotning yaxshi manzaralarini shakllantirishda jonli va yorqin obrazlardan foydalanishning ahamiyati kattadir. Shunga erishish kerakki, bayon qilingan har bir tarixiy dalil, geografik nom va shaxs faoliyati obrazli bo'lishi lozim. Obrazlilik - o'quvchilarning tarixdan oladigan bilimlarining puxta bo'lishida, tarixga qiziqish uygotish, tarixiy dalillarni tahlil qilish va umumlashtirish uchun zarur bo'lgan shart – sharoitlarni yaratishning muhim vositasidir.

Maktab tarix kurslarida o'quvchilar ko'z oldida eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlargacha bo'lgan jamiyat taraqqiyoti izchillik bilan ochib beriladi. O'quvchilar aniq tarixiy dalil va hodisalarni tekshirish va umumlashtirish asosida rivojlanishning qaror topishi to'g'risidagi ilmiy tushunchalar bilan qurollanadilar. «Jahon tarixi»ning qadimgi davrlarini va «O'zbekiston tarixi»ning qadimgi davrlarini o'qitish jarayonida ibtidoiy odamlar mehnatining takomillashib borishi, mehnat ular hayotini qanday o'zgarishlarga olib kelganligini o'quvchilar ongiga singdirib boriladi. Taraqqiyotning tarixiy jarayoni tushuntirilar ekan, ular tasavvurida ibtidoiy odamlar hayoti to'g'risida ko'rsatmali qurolsiz tushuncha hosil qilib bo'lmaydi. Insoniyat taraqqiyotining ibtidoiy davrini faqat ushbu davr yodgorliklarini ko'rsatish yoki rangli rasmlardan foydalanish orqali tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy tasavvurlarni shakllantirishda tarixiy hodisalar obrazlarini faol suratda idrok etishga qaratilgan usullardan foydalaniladi. O'qituvchi hikoyasining mazmunan ko'rgazmali va obrazli bo'lishi darslik matnidagi tarixiy hujjatlardagi voqea va tasviriy rasmlar, badiiy adabiyot asarlari o'quvchilarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi materialni bayon qilayotganda tarixiy hujjatlardan, ilmiy – ommabop va badiiy adabiyotlardan olingan yorqin tafsilotlarga hamda o'quvchilardagi mavjud tasavvurlarga suyangan holda ish tutadi. O'quvchilarning tarixga qiziqishining ortishi o'quvchilarda aniq va puxta tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi bayonining jonli va emotsional bo'lishining o'zi kifoya qilmaydi. O'qituvchi o'quvchilarning faol fikrlashini tashkil qilishi va unga rahbarlik qilishi lozim.

O'qituvchi ko'rgazmali qurolni shunday ko'rsatib, uning mazmunini tushuntirib, hujjatlarni o'qib qo'ya qolmay, balki hikoyadagi eng muhim joylarini alohida ohang bilan ta'kidlashi, ko'rgazmali qurollarni, matnlarni o'quvchilarning faol ishtirokida tahlil qilib, undagi eng muhim elementlarni ajratib chiqishi, o'rganilgan hujjatlardagi, u yoki bu hujjatlarga ular diqqatini jalb qilishi lozim.

Tarixiy tushunchalarni hosil qilish deganda, o'quvchilarning tarixiy dalillarning eng muhim belgilarini ikkinchi darajali belgilaridan ajrata bilishi, guruhlariga bo'la olishi, tarixiy voqea va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni chuqur anglab tushunib olishni ko'zda tutadi. Ana shu taxlitda shakllangan mukammal tarixiy tushunchalar ilmiy bilimlar tizimining vujudga kelishida bamisoli zanjir vazifasini o'taydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tarix o'qitish metodikasi fanidan maruzalar matni. Tuzuvchi: S.I.Hamroyeva.
2. N.N.Azizxo`jayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.
3. Internet malumotlari.



## МАКТАБЛАРДА ТАРИХ ДАРSLARINI О‘QITISHDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

**Hayitova Gavhar Pardayevna**

Navoiy viloyati Zarafshon shahar

7-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Bu maqolada umumta’lim maktablarida tarix darslarini o‘qitishning muammoli usullari, muammoli ta’lim texnologiyalari haqida malumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** muammoli ta’lim, tarix, ma’naviyat, samara, fikrlash, muammo.

Yosh avlodning har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma’naviyatli, barkamol, vatanparvar shaxslar bo‘lib yetishishini ta’minlash yo‘lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining asosiy bo‘g‘ini sifatida pedagog xodimlarning yuqori ilmiy, metodik bilimlarga hamda amaliy ishlash bo‘yicha yuksak mahoratga ega bo‘lishlarini ta’minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish eng katta vazifalardan hisoblanadi. Hozirda har bir maktabda ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish jiddiy vazifa bo‘lib turibdi. Buning uchun har bir o‘qituvchi o‘z fanini o‘qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarini puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o‘rganib borish orqali o‘z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi.

Ta’lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligi ma’lum. Ta’lim sifat va samaradorligini oshirish uchun darslarida muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Muammoli ta’lim texnologiyalari o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Muammoli ta’lim texnologiyasining asosi-insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta’limning bosh maqsadi – o‘quvchilarning muammoni to‘liq tushunib yetishiga erishish va ularni hal eta olishga o‘rgatishdan iborat. Muammoli ta’limni amaliyotda qo‘llash asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyat yaratishdan iborat. Tarix fani bo‘yicha o‘qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan ko‘zda tutishlari kerak.

**Tarix darslarida muammoli vaziyat yaratish usullari:** o‘qituvchi o‘quvchilarga dars mavzusi bilan bog‘liq ziddiyatli holatni tushuntiradi va uni yechish yo‘lini topishni taklif qiladi; bir masalaga doir turli nuqtayi-nazarlarni bayon qiladi; hal etish yetarli bo‘lmagan yoki ortiqcha ma’lumotlar bo‘lgan yoki savolning qo‘yilishi noto‘g‘ri bo‘lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

**Tarix darslarida muammoli vaziyatni hal etish darajalari:** o‘qituvchi muammoni qo‘yadi va o‘zi yechadi; o‘qituvchi muammoni qo‘yadi va uning yechimini o‘quvchilar bilan birgalikda topadi; o‘quvchilarning o‘zlari muammoni qo‘yadilar va uning yechimini o‘zlari topadilar.

**Tarix fani darslarida muammoli vaziyatni yechishda qo‘llaniladigan usullar:** muammoni turli nuqtai nazardan o‘rganish, tahlil qilish; solishtirish, umumlashtirish; vaziyatga bog‘liq xulosalar chiqarish; o‘quvchilarning o‘zlari aniq savollar qo‘yishi va boshqalar.

**Tarix fani darslarida muammoli ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish va boshqarish.** Muammoli ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish va boshqarish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quv fani va darslar mavzusini o‘rgatishda ular bilan bog‘liq muammoli masalalarni belgilash;
- ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirib borish;
- o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish;
- zarur o‘quv vositalarini tayyorlash;
- topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish;
- o‘quvchilarning noto‘g‘ri taxminlari asosida chiqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to‘g‘ri yo‘lni topishlariga ko‘maklashish va boshqalar.

Tarix fanini o‘qitishda muammoli ta’lim jarayonini quyidagi uchta asosiy bosqichga ajratish



mumkin:

1. Muammoli vaziyat hosil qilish.
2. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirish.
3. Yechimning to‘g‘riligini tekshirish.

Tarix fanidan muammoli vaziyat hosil qilishda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

1. Muammolar nazariy yoki amaliy yo‘nalishda bo‘ladi.
2. Tarix fani bo‘yicha muammoli ta‘lim mashg‘ulotlari ishlanmalarini tayyorlash va amalda qo‘llash mashqlarini bajarish.

O‘qituvchilar tarix fani bo‘yicha o‘zlari tanlagan mavzudagi darsni eng maqsadga muvofiq muammoli o‘qitish turlaridan foydalanib o‘tkazish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlaydilar va uning asosida metod birlashma a‘zolari ishtirokida shu mashg‘ulotni bayon qilib beradilar va tegishli muhokama o‘tkaziladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.
2. Ilhomov Z. Tarix fani metodologiyasi.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



## TARIX DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL O'YINLAR

**Namozova Dilnavoz Usmonovna,  
Yuldosheva Gulixayo To'ynazarovna**  
Navoiy viloyati Zarafshon shahar  
5- maktab tarix fani o'qituvchilari  
Tel:933186168

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tarix fanlarida qo'llaniladigan umumpedagogik texnologiyalar, interfaol o'yin texnologiyalari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Fazoga sayohat, bu kim intellektual o'yini, Menga kerak o'yini

Ishbilarmonlik yoki rol (vaziyatli) o'yinlar – muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o'rinda, matnli material o'rniga o'quvchilar tomonidan roller o'ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi. Bosqichlari: vaziyatni tushuntirish, mos rollarni bo'lib berish, maqsad va vazifalarni tushuntirish; o'yin davomida o'quvchilarning hatti-harakatlarini kuzatib borish; o'quvchilarning hatti-harakatlari orqali ularga bilim olishlariga, ma'lum malaka va ko'nikmalarni egallashlariga 21 imkoniyat yaratish; o'yin natijalarining tahlili; o'yin natijalarini real hayotiy hodisalar bilan taqqoslash.

### **Boshqalarni o'qitish orqali o'rganish usuli**

Bu usulda ta'lim oluvchilar belgilangan mavzu yoki qo'yilgan muammo bo'yicha bir – birlariga axborotlarni almashadilar va o'z bilganlarini boshqalarga o'rgatadilar.

### **Juft-juft muloqot**

Biror mavzu bo'yicha yonma-yon o'tirgan o'quvchilarni o'zaro muloqotga chorlash; o'zaro fikr almashish va ularni ba'zilarini tinglash.

“Fazoga sayohat”. Bu o'yin asosan yangi sinfda, begona auditoriyaga moslashish uchun o'tkaziladi. O'quvchilarga fazoga chiqish uchun imkoniyat berildi, lekin ularga faqat bir dona buyum olishga ruxsat beriladi. O'quvchi mantiqan o'ziga mos buyumni topishi kerak, topgunicha o'yin davom etadi. Masalan: Nodira “sen qanday buyum olasan” kabi savollar bilan murojaat qilib borasiz, Olma olmoqchiligini aytsa, bu unga mumkin emasligini aytasiz, yordam tariqasida “Olmani Obidjon olishi mumkin” kabi so'zlarni aytishingiz mumkin, tushungan bo'lsangiz har bir o'quvchi o'z ismi bosh harfi bilan boshlanuvchi buyumni olishi kerak. O'quvchilar o'yin mohiyatini anglaguncha o'yinni davom ettirasiz.

“Bu kim” intellektual o'yini. O'tilgan mavzu yuzasidan olimlar suratlaridan 5 tasini tanlab olamiz. Har bir olim haqida 5 ta ma'lumot yozamiz, har biri alohida qog'ozga, hosil bo'lgan 25 ma'lumotni 5 nusxada konvertga solib, guruhlariga tarqatiladi. Har bir guruh o'zi tanlab olgan olim haqidagi ma'lumotlarni tanlab olishlarini vazifa qilib beriladi.

Olimpiada mash'alasi.

Gretsiya mavzusi bo'lganligi uchun Olimpiada mash'alasi o'yinini olamiz. Mash'ala yasaymiz va uni har bir guruh bir ma'lumotni aytadi va mash'alani narigi guruhga uzatadi. Mash'alani uzoq ushlab turish mumkin emas, 10 soniyada ma'lumot ayta olmagan guruh o'yinni tark etadi. Maksimal 10 ball.

### **“Menga kerak “ o'yini**

Bu o'yinda alohida aslahalar suratlari beriladi. Guruhlarga a'zolar bu aslahalarni qaysi ilohga tegishligini topishi kerak



Guruhlar o'z ishlarini yakunlagach xudolar suratining to'liq tasviri beriladi va tekshiriladi



Har bir pedagog shuni doim esda tutishi kerakki, dars o`quv tarbiya jarayonining asosiy formasidir. Hozirgi zamon tarbiyasining barcha jarayonlari o`quvchilarni mustaqil fikrlashga va mustaqil ijod qilishga o`rgatishdan iboratdir. Biz o`qituvchilar dars jarayonida birinchi navbatda o`quvchilardan fanlardan chuqur va mustahkam bilim berish bilan birga, ularda bilimga qiziqishni, mehnat qilishga ehtiyojni tarbiyalab borishni ko`zda tutamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdukarimov H., O. Suvonov. Umumiy pedagogika: texnologiya va amaliyot. – T.: o`quv-metodik qo`llanma. 2012
2. Bo`ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzluksiz ta`lim. 2004. №3, 23-28 b.



## ZAMONAVIY TARIX DARSII VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR

**Sultonov Ixtiyor Abdujabbor o'g'li**  
Sirdaryo viloyati Boyovut tumani  
9-son umumiy o'rta ta'lim maktabi  
tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida zamonaviy tarix darslari va ularga qo'yiladigan talablar, maqsad va vazifalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** tarix, ta'lim, tarbiya, mazmun, vazifa, maqsad, bilim, dars, g'oya.

Tarix kursi oldiga qo'yilgan ta'lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri har bir sinfda o'qitiladigan tarix kursining tutgan o'rni, uning ta'lim-tarbiyaviy vazifalari, har bir bo'lim va bo'limdagi mavzular, hatto har bir darsda o'tiladigan mavzuning ham juz'iy vazifalari oldindan aniq belgilab olingandan keyingina tarix o'qitishga kirishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsad va vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish birinchi navbatda o'qituvchining har bir darsning ta'lim-tarbiya vazifalarini oldindan aniq va to'g'ri belgilab olib bilishiga bog'liqdir. Bu ham, o'z navbatida, o'qituvchining darsning ta'lim-tarbiya vazifalarini to'g'ri belgilash metodi va usullari haqidagi nazariy bilim va malakalarining darajasiga bog'liqdir.

Umumiy o'rta ta'lim ta'lim tizimida tarix kursi oldiga qo'yilgan ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishning eng muhim shartlaridan biri har bir darsning ta'lim-tarbiya vazifalarini, shuningdek, uning boshqa darslar sistemasida tutgan o'rnini aniq belgilash va shu vazifalarni amalga oshirishdan iboratdir. Lekin har qanday tarbiyaviy vazifani ham, bir yoki bir necha darsda yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'tkaziladigan ayrim tadbirlar vositasida batamom mukammal hal qilib bo'lmaydi.

Har bir tarix darsida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda tarix o'qitish oldiga qo'yilgan g'oyaviy va tarbiyaviy vazifalarning qandaydir bir elementi amalga oshiriladi. Shuning uchun ham o'qituvchi har bir tarix darsiga tayyorlanishda bu dars oldin o'tilgan darslarning davomi, bu darsda hal qilinishi kerak bo'lgan ta'lim-tarbiya vazifalari esa oldingi yoki kelgusi darslarda bajariladigan ta'lim va tarbiya vazifalarining ajralmas bir tarkibiy qismi ekanligini unutmasligi kerak.

Ilmiy dunyoqarashning asosini tashkil etuvchi muhim tushunchalarni o'quvchilar asta-sekinlik bilan, bir qancha darslar davomida o'zlashtirib boradi, yangi tushunchalar keyingi dars materiallari asosida konkretlashib, yangi mazmun bilan boyiydi. Keyingi dars o'quvchilarning avvalgi darslarda olgan bilimi, orttirgan malakalarini kengaytiradi, ularda yangi tushunchalar hosil qiladi. O'quvchilar tarixiy protsesslarni keng va chuqurroq tushunadigan bo'lib boradi.

O'qituvchi har bir navbatdagi darsni rejalashtirar ekan, butun tarix kursining bir qismi bo'lgan bu darsda ta'lim va tarbiya vazifalarining qaysi bo'lagi yoki elementi qay darajada, qanday materiallar asosida va qaysi tomonini hal qilishi, o'quvchilarni qanday umumiy xulosalarga olib kelishi, qanday tarixiy tushunchalarni aniqlashi yoki kengaytirishi, qanday yangi g'oyalar tushuntirilishi, ularni qay tarzda tanishtirishi kerakligini puxta o'ylab olishi zarur.

O'qituvchi butun tarix kursining ta'lim-tarbiya vazifalarini ayrim mavzularning ta'lim-tarbiya vazifalari bilan bog'lab rejalashtirmog'i kerak. Mavzular bo'yicha rejalashtirish mavzularni o'qitishning metodik sistemasini ishlab chiqishga yordam beradi. Mavzular bo'yicha rejalashtirganda har bir mavzuning butun tarix kursida tutgan o'rni va roli aniqlab olinadi.

Har bir darsning ta'lim-tarbiya vazifalari o'z-o'zidan emas, balki o'qituvchining ongli va rejali ishi asosidagina muvaffaqiyatli amalga oshirilishi lozim. O'qituvchi darsga tayyorlanayotganda o'quv programmasining hajmi va mazmunini hisobga olib material tanlaydi, programma va darslik asosida dars planini tuzadi, materialni joylashtiradi va uni bayon qilishda hujjat va boshqa ko'rsatmali qurollardan foydalanish metodlarini belgilaydi. Ammo, bu ishlar o'qituvchi darsning asosiy g'oyasini, undan ko'zlanayotgan ta'lim-tarbiya vazifalarini, darsda nimaga erishish, o'quvchilarda qanday tasavvur va tushuncha xosil qilish kerakligini aniq va to'g'ri hal qilgan taqdirdagina o'qituvchi ko'zlangan maqsadga erishishi mumkin. Darsning bosh g'oyasi va uning tarbiyaviy vazifalari to'g'ri va aniq belgilanmay o'tkazilgan dars programmada ko'rsatilgan faktlarni tasodifan, shunchaki sanab o'tishdan iborat bo'lib qoladi.



Material tanlash va uni izchillik bilan joylashtirish, darsda qo'llaniladigan butun didaktik usullar va metodik vositalarning hammasi darsning bosh g'oyasiga, uning ta'lim va tarbiya vazifalarini hal etish maqsadiga bo'ysundirilishi kerak. Shuning uchun ham har bir darsning bosh g'oyasi va uning ta'lim-tarbiya vazifalarini aniqlash o'qituvchining darsga tayyorlanishida eng muxim bosqichni tashkil qiladi. Tarix darsiga tayyorlanishning bu muhim bosqichi eng mas'uliyatli bo'lishi bilan birga, ishning eng qiyin tomoni hamdir.

Tarix darslarining g'oyaviy mazmuni, ta'lim-tarbiya vazifalari tarix programmasida berilgan material mazmuniga qarab belgilanadi. O'qituvchi darsda tarixiy voqealar va ayrim faktlarni bayon qilar ekan o'quvchilar uchun ularni bilishning qanday ahamiyati borligini jiddiy o'ylab ko'rishi, eng muxim va xarakterli tarixiy faktlarni ayniqsa kengroq qilib gapirib, tahlil qilib berishi, voqealarning mohiyati, uning qonuniyatlari va tarixiy ahamiyatini ochib ko'rsatishi lozim. Tarix darslarining asosiy mazmunini tashkil etuvchi tarixiy voqeaning mohiyatini, uni keltirib chiqargan sabablarini, uning qonuniyatlari, ahamiyati va natijalarini chuqur o'rganish asosidagina darsning g'oyaviy mazmunini, ta'lim-tarbiya vazifalarini to'g'ri va aniq belgilash mumkin.

Tarix o'qitishning muhim vazifasi - tarixiy hodisalarga berilgan ilmiy baholarni va o'rganilayotgan material yuzasidan chiqarilgan boshqa xulosalarni o'quvchilarga ishonarli qilib tushuntirib berishdan iboratdir. Ma'nosini yaxshi tushunmasdan yodlab olingan xulosalar o'quvchilar uchun ishonarli bo'lmaydi, tafakkur bilan, emotsional kechinmalari natijasida, tushunib, bilib olingan xulosalar ishonarli bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tarix o'qitish metodikasi fanidan maruzalar matni. Tuzuvchi: S.I.Hamroyeva
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.
3. Maktablarning tarix fani darsliklari.



## БУХОРО ШАРҚ ДУРДОНАСИ

Нуралиева Хилола Камтар қизи  
Қарши ДУ 2-курс талабаси  
Телефон: + 998995765532

**Аннотация:** Ушбу мақолада Бухоронинг қадимий, азим шаҳарларидан бири “Бухоройи Шариф” нинг тарихи, даврлар оша ривожланиши, илм-фан, санъат ва маданиятнинг ўсиши, ўзига хос таълим тизими шаклланиши, Бухоронинг жаҳон ва Ўзбекистон тарихида тутган ўрни, шаҳарни ўрганиш мақсадида олиб борилган тадқиқотлар ёритилган.

**Калит сўзлар:** “Бухоройи Шариф”, жаҳон цивилизацияси, маданият, тарих, илм-фан ривож, адиблар мероси, илмий система, тиб илми, илоҳиёт илми

Бухоро Ўзбекистоннинг қадимги тарихий масканларидан бири. Бухоро тарихи, маданияти Ўзбекистонда яшовчи барча халқлар ўтмишининг бир бўлаги ҳисобланади. Шу сабабдан Бухоро тарихини ўрганишга алоҳида эътибор қаратилди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил февралдаги Бухоро вилоятига ташрифи Бухоро тарихини махсус ўқитиш борасидаги масаланинг ижобий ечим топишига йўл очди. Президентимиз томонидан Бухоро Давлат Университети ҳузурида Бухоро тарихи таълим йўналишини очиш тўғрисида берилган топшириққа биноан 2018-2019 ўқув йилида Бухоро тарихи таълим йўналиши ташкил этилиб, ҳозирги пайтда унда талабалар таҳсил олмақда[1].

IX-XII асрларда Моварауннаҳрда юз берган уйғониш марказлашган давлатлар ташкил топиши учун қулай шароит яратди. Сомонийлар даврида давлат бошқарувини мустаҳкамлаш ва ижтимоий ҳаётни мувофиқлаштириш мақсадида амалга оширилган ислохотларнинг натижаси ҳар бир соҳани ривожлантиришни кўзлаган девонларни таъсис этишда намоён бўлади. Илм-фан, таълим соҳаларида жаҳоншумул ютуқларнинг қўлга киритилишини, албатта шу даврда яшаб ижод қилган алломалар мероси орқали билиб оламиз. Абу Хафс Кабир Бухорий, Имом Бухорий, Абу Мансур Қумрий, Ибн Сино, Наршахий, Рудакий каби олиму адиблар мероси бугунги авлод учун ибрат намунаси бўлиб хизмат қилади[2].

Бухоро Шарқ тиббиёт илми ўчоқларидан бири ҳисобланади. Ибн Синодек буюк алломанинг шаклланишида ўрта асрлар Бухоросидаги тиббий муҳит, тиббий билимлар даражаси шарт – шароит яратди. Чунки Бухоро яқинидаги кўҳна Пойкент шаҳарчаси худудидан қадимий дорихона қолдиқларининг топилиши араблар истилосига қадар Бухоро воҳасида тиббий билимларнинг амалиётга жорий қилинганлигидан далолат беради. Ибн Синога таъбабатдан устозлик қилган Абу Мансур Қумрий X аср таъбабат илмида ўз ўрнига эга бўлган машхур ҳаким ҳисобланади. Унинг таъсири остида шаклланган ва тиббиёт алломасига айланган Ибн Сино қадимги юнон тиб илмининг асосчиси Гиппократ, Шарқ таъбабати намоёндаси ар-Розий тиббий қарашларини қайта кўриб чиқиб, тиббиёт соҳасида ўзининг янги илмий системасини яратди. Бу система 600 йил мобайнида Европада устуворлик мақомини сақлаб қолди. Ибн Синонинг буюклиги ҳам шунда. Ибн Синонинг тиб илмидаги буюк кашфиётлари ва уларнинг амалий аҳамияти тўғрисида маълумотлар мавжуд[3].

Бухоро илоҳиёт илмининг Моварауннаҳрдаги марказларидан бири бўлганлигини Бухорода қад кўтарган биринчи мадраса тасдиқлайди. Абу Хафс Бухорийнинг ислом илоҳиёти илмидаги хизматлари Бухоронинг “Куббатул ислом” (Ислом гумбази) унвони билан эътироф этилишида намоён бўлади. Мўғуллар истилосидан кейин энг катта талафот кўрган шаҳарлардан бири Бухородир. Шаҳар бир асрнинг ўзида икки марта каттиқ талафот ва қирғинга учради. XIII аср охири XIV аср бошларида Бухорода ижтимоий ҳаёт яна изга туша бошлади. Темурийлар даврида Самарқанд давлатнинг пойтахти сифатида катта ижтимоий-сиёсий ва маданий аҳамият касб этган бўлса, Бухоро ислом динининг гумбази мақомини сақлаб қолди ва Соҳибқирон Амир Темурнинг эътиборига сазовор бўлди. Темурийлар даврида Бухорода ўзига хос муҳит шаклланди ва бу Хўжа Исмаил Бухорий адабий меросида кенгрок кўзга ташланади. Темурийлар давридаги маънавий муҳитни дунёга Баҳоуддин Нақшбанддек буюк пирни ва у асос солган Нақшбандия тариқатини берди.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёев айганларидек “Бухоронинг жаҳон цивилизацияси ва ислом маданияти ривожига қўшган ҳиссаси бекиёс. Бу заминда кўплаб алломалар таваллуд



топган ва яшаган. Уларнинг бой меросини чуқур ўрганиш ва кенг тарғиб қилиш керак. Бухоронинг кўҳна ва боқий шаҳар, деб аталишида катта маъно бор. Бу ердаги қадимий обидалар, осори-атиқалар, ҳалқимизнинг бетакрор қадриятлари, ўлмас анъаналари асрлар оша яшаб келмоқда. Чет элликларнинг, тарихчи ва мутахассисларнинг уларга қизиқиши доимо юқори бўлган. Бундан самарали фойдаланиш керак [4].”

Хулоса қилиб айтганда, Бухоронинг Шариф шаҳарлар рўйхатига кириши, унинг даврлар оша ўз салобати ва ҳайбатини йўқотмай келаётгани бежиз. Тан олиш жоизки, Бухоро шаҳри ислом оламида ўзининг нуфузи жиҳатдан илмий, диний, дунёвий илмлар ривожланиши томонидан олдинги ўринларни эгаллайди. Бухоронинг Ўзбекистон тарихи ва дунё тарихида тутган ўрни даврлар оша ўзгармасдан сақланиб келаётганлиги унинг халқаро майдонда етарлича мавқега эга эканлигидан далолатдир. Президентимиз айтганларидек, Бухоронинг жаҳон цивилизацияси ва маданияти ривожига ўрни бекиёс десак муболаға бўлмайди.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. w.w.w.ziyonet.uz сайти
2. А.Мухаммаджонов “Ўзбекистони тарихи”
3. Наршахий “Бухоро тарихи”
4. w.w.w.ziyo.uz сайти



## RUS -TUZEM MAKTABLARIDA O'QITISH TIZIMI

**Ergashev Shohrux Kamoliddin o'g'li**  
Guliston davlat universiteti talabasi  
shohruh2ergashev@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda Turkiston hududida Rus-tuzem maktablarining shakllanish tarixiga nazar tashlanadi. Bunday maktablarda bolalarga ta'lim berish qanday yo'lga qo'yilganligi va ushbu maktablarni ta'lim dasturlari nimalardan iborat ekanligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Tuzem, ta'lim dasturi, madrasalar, mahalliy fanlar, lankaster usuli, sinfxonalar, o'qituvchi.

Bizga ma'lumki, Chor Rossiyasi tomonidan Turkiston hududi bosib olingandan so'ng, ruslar ushbu hududlarda "Rus-tuzem" nomi ostida yangi maktablar tashkil eta boshladi. Bunday maktablarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad, mahalliy millat bolalariga o'z g'oyalarini singdirish, mahalliy aholini ruslashtirish va ularni rus madaniyatiga yaqinlashtirishdan iborat edi. Qolaversa, Chor Rossiyasi O'rta osiyo hududini bosib olgandan so'ng, o'lkani iqtisodiy, ijtimoiy, geografik jihatdan yaxshi biladigan tarjimonlarga ehtiyoj seza boshlagan edi. Ruslar tomonidan "Tuzem" so'zi mahalliy aholiga nisbatan ishlatilgan. Shu sababdan bunday maktablar "Rus-tuzem" nomi ostida tashkil etila boshlangan.

Bunday maktablarni tuzish g'oyasi Turkiston general gubernatorligi tuzilmasdan oldin boshlangan. Jumladan 1859- yilda Orenburg ruhoniylar konsestori ruhoniysi Pobedonostsevning Orol dengizi mintaqasida ruslar va mahalliy aholining farzandlari o'qiydigan maktablar tashkil etish to'g'risidagi g'oyasi o'sha paytda Sirdaryo liniyasi hududlari rahbari general -mayor Danzas ikkinchiga ma'qul tushib maktab uchun tegishli inshoot qurish va mablag' ajratish to'g'risida qaror chiqaradi . Tez orada yangi maktablar tashkil etish to'g'risidagi g'oyalar, Chor Rossiyasi hukmron doiralari qiziqishiga ham sabab bo'ldi. Jumladan, Chor Rossiyasi general -leytenant Gluxov Perovskiy (Oqmachit) shahrida shunday maktab qurish to'g'risida buyruq beradi. [3] Keyingi yillarda Rus-tuzem maktablari hukumat binolariga ko'chirila boshlandi. 1859-yil 5-martda Turkiston hududida rus -tuzem maktablari uchun o'quv dasturi qabul qilindi. Perovskiy komendatining gaplariga qaraganda, Sirdaryo hududida dastlab tashkil etilgan rus -tuzem maktablarida yetti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan ellik olti nafar o'quvchi o'qigan . Shulardan o'ttiz uch nafari o'g'il, yigirma uch nafari qiz bo'lgan. Dastlab tashkil etilgan maktablar uch sinfdan iborat bo'lgan. Bunday maktablarda o'qish muddati cheklanmagan. N.P.Ostroumovning fikricha 19-asrning 60-yillarida hatto ichki Rossiya hududlaridagi boshlang'ich maktablarda ham o'qish muddati cheklanmagan. Hozirgi Qozog'iston hududlarida tashkil etilgan rus -tuzem maktablarining butun yigirma yillik faoliyatlari davomida faqat bir qozoq bola Qul Muhammad O'taganov maktabni o'qib tamomlagan.[3] Ya'ni o'quvchilar rus tilini o'rganib olganlaridan so'ng o'qishni davom ettirmay maktabni tark etishgan. Hozirgi Qozog'iston hududlarida tashkil etilgan rus-tuzem maktablarining o'quv dasturida: Beshta mahalliy fanlar, rus tili, arifmetika, to'rt amal qoidalari va qozoqchadan rus tiliga tarjima qilish usullari mavjud edi.[3]

Ushbu maktablarda bolalarga ta'lim berishda "Lankaster" usulidan foydalanilgan. Ya'ni o'qituvchi bir mavzuni sinfdagi eng bilimdon bolaga tushuntirgan. O'sha bola esa sinfdagi qolgan bolalarga o'tilgan mavzuni o'rgatgan. Dars soatlari sentabr, oktabr, mart, aprel, may oylarida soat 8-00 dan boshlanib 23-00 gacha davom etgan . Tushlik va tanaffuslar bilan. Qish oylarida esa darslar soat 8-00 dan boshlanib tungi soat 24-00 gacha davom etgan. Zamonaviy pedagogika shuni ko'rsatib berdiki, bolalarga ta'lim berishda dars soatlari juda muhimdir. Bu borada rus-tuzem maktablarida o'tilayotgan dars soatlari tartibga solinmaganligi tufayli o'quvchilarni fanlarni o'zlashtirishi a'lo darajada bo'lmagan.

1886-yilda rus-tuzem maktablarini bitirgan 628 o'quvchidan 215 tasi musulmon o'quvchilar edi. Turkistonda hududida boshlang'ich rus maktablari 1912-yilda 330 ta, 1914-yilda o'rta rus maktablari 50 ta edi.[2] Yurtimiz ya'ni ( hozirgi O'zbekiston ) hududida rus-tuzem maktablarini tashkil etish g'oyasi, Toshkentlik savdogar Said Azimga tegishli. Qo'qon xonligi davrida Said Azim Rossiya bilan savdo-sotiq qilgan. Rus tilini juda yaxshi bilgan Said Azim bir paytlar Aleksandr ikkinchi ning imperator bo'lishi sharafiga Toshkent shahrida masjid qurdirgan. U Rossiya imperiyasining bir umrlik faxriy fuqarosi maqomiga sazovor bo'lgan edi. Said Azimning



rus- tuzem maktablarini tashkil etish to'g'risidagi g'oyalarini o'sha davrda Turkiston general-gubernatori Rozenbax (1884-1889) qo'llab quvvatlaydi.[3] General-gubernator Rozenbax (1884-1889) davrida yurtimizda ommaviy tarzda rus- tuzem maktablari tashkil etila boshlandi. Shunday maktablarning birida o'qigan mashhur o'zbek matematik olimi T.N. Qori Niyoziy o'z estaliklarida rus- tuzem maktablarida o'qitish tizimi haqida gapirib o'tgan. Jumladan olimning aytishicha bunday maktablarda ayniqsa o'qituvchilarning moddiy ahvoli juda og'ir edi. Masalan O'sh shahridagi rus-tuzem maktabining o'qituvchisi V.Orlov 1906- yilda yozgan maqolasida bunday degan edi: "Qanday uyat va sharmandanlikki, sizlarning minglab olayotgan maoshlaringiz xo'rlangan g'arib va och o'qituvchilar hisobigadir." [1] Yurtimizda tashkil etilgan rus-tuzem maktablarida 25-30 tagacha bola o'qigan. Maktabning shtati uch kishidan iborat bo'lgan. (Mudir- ruschadan o'qituvchi, musulmoncha xat-savod o'qituvchisi va qorovul). Rus-tuzem maktablarida o'qitish tizimi turli yillarda turlicha bo'lgan, uning sifati asosan o'qituvchilarning saviya va malakasiga, o'zbek tilini qay darajada bilishiga bog'liq edi. Bu maktablarda rus tili, butun sonlar bilan to'rt amal doirasida arifmetikadan, tarixdan, geografiyadan (asosan Rossiya geografiyasi) dan boshlang'ich bilim berilgan. Shu bilan birga mahalliy o'zbekcha fanlar ham o'tilardi. O'quvchilarga darslarda asosan C.Grameniskiy tuzgan va 1898-1898-yillarda nashr etilgan birinchi, ikkinchi va uchinchi "O'qish kitob" lari o'tilgan.[1] Bu maktablarni asosiy vazifasi tarjimon tayyorlash edi. Haqiqatda ham mahalliy aholining rus tilini bilmasligi turli hukumat idoralarida, (masalan sudlarda, uyezd boshqarmalarida, notarial idoralarda) katta qiyinchiliklar tug'dirgan, chunki ularda barcha ishlar rus tilida yurgizilardi. Shu sababdan bo'lsa kerak bunday maktablarda boylarning bolalari juda kam bo'lgan, chunki ular bolalarining tarjimon bo'lib xizmat qilishini o'zlariga munosib ko'rmas edilar. Rus-tuzem maktablariga asosan past tabaqadagi kishilarning bolalari kirar edi. (Keyingi yillarda arxivlarda topilgan yuzlab hujjatlar bu faktni tamomila tasdiqladi).[1] **Xulosa** qilib aytganda, bunday maktablarda o'qitish tizimi ilg'or jadidlarning o'qitish tizimidan orqada bo'lgan. Bunga sabab bo'lgan omillardan biri maktablarda dars berayotgan o'qituvchilarning ilmiy salohiyati past darajada ekanligi va shu maktablar uchun ishlab chiqilgan ta'lim dasturlarida deb o'ylayman. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, Rus-tuzem maktablari uchun ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bir tomonlama ko'zlangan maqsadni ifodalagan. Ya'ni tarjimonlar tayyorlab berish. Maktablarda o'qiyotgan o'quvchilarning xohish-irodasi inobatga olinganda va dunyoviy fanlarni kengroq ravishda o'qitish ishlari yo'lga qo'yilganda bu maktablar ham zamonasining ilg'or maktablaridan biriga aylangan bo'lardi. Lekin bir narsani unutmasligimiz kerak, rus-tuzem maktablari ham Turkiston hududida ta'lim tizimini rivojlantirishga ma'lum ma'noda o'z xissasini qo'shgan. Ya'ni bu maktablarda o'qigan mahalliy aholining farzandlari rus tilida erkin muloqot qilishar edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. T.N.Qori Niyoziy estaliklari:Hayot maktabi.Fan nashriyoti.1964-yil.54-60-betlar.[1]
2. Hur Turkiston uchun .Tohir Qahhor.1994-yil.cho'lpon nashriyoti.28-29-betlar.[2] Эволюция исламского образования в Туркестане во второй половине 19- начале 20 вв. Санкт Петербург. 2018. Umarov Abduvahob Xusanboy o'g'li. 47-52- betlar.[3]



## TARIX DARSLARIDA TARIXIY TASAVVUR VA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH.

**Abdullayeva Chamangul Sotimovna**  
Xorazm viloyati Bog'ot tumani  
26 son maktab tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tarix darslarining o'quvchilar ongida tarixiy tushunchalarni singdirishdagi ahamiyati haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** tarix, o'tmish, o'qituvchi, bilim, ko'nikma, o'quvchi, malaka.

Tarix o'qitish tarixiy faktlar haqida aniq obrazlarni va tasavvurlarni yaratishdan boshlanadi. Tarixiy tasavvur bilan tushunchalar bir-biri bilan uzviy boglangan, ukuvchilarda hodisalalar tarixiy jarayonlar haqida yetarli darajada to'liq va aniq tasavvurlar mavjud bo'lgandagina tushunchalar hosil buladi. Tarix o'qitish jarayonida o'quvchilarning tasavvurlari chuqurlashib borishi natijasida, tushunchalarni shakllantirish uchun zamin yaratiladi. Tushunchalar o'z navbatida tasavvurlarni mazmunan boyitishga yordam beradi. Tasavvur va tushunchalarni hosil qilish metodik usullari xam ko'pchilik hollarda bir-biriga o'xshab ketadi.

Tarix o'qitishda o'quvchilarning ko'z o'ngida o'tmishdagi ijtimoiy hayotning yaxshi manzaralari shakllantirishda jonli va yorqin obrazlardan foydalanishning ahamiyati kattadir. Shunga erishish kerakki, bayon qilingan xar bir tarixiy fakt, geografik nom va shaxs faoliyati obrazli bo'lsin. Obrazlilik o'quvchilarni tarixdan oladigan bilimlarini ilmiy puxta bo'lishini zarur sharoitlaridan biri tarixiy voqealarni modernizatsiya qilishning oldini olish tarixga qiziqish uyg'otish hamda tarixiy faktlarni tahlil qilish va umumlashtirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishning muhim vositasidir. Tarixiy faktlarni tahlil qilishga bir namuna keltiramiz:

Maktablarda tarix kurslarida o'quvchilar ko'z oldida eng qadimgi zamonlardan tortib to hozirgi kunlargacha bo'lgan jamiyat taraqqiyoti izchillik bilan ochib beriladi. O'quvchilar aniq tarixiy fakt va hodisalarni tekshirish va umumlashtirish asosida rivojlanishning karor topishi tugrisidagi ilmiy tushuncha bilan qurollanadilar- «Qadimgi dunyo tarixi» va «O'zbekiston tarixi» fanlarini o'qitish jarayonida ibtidoiy odamlar mehnatining takomillashib borishi mehnat ular hayotini qanday o'zgarishlarga olib kelganligini o'quvchilar ongiga singdirib boriladi.

Taraqqiyotning tarixiy jarayoni tushuntirilar ekan, ular tasavvurida ibtidoiy odamlar hayoti tugrisida ko'rsatmali qurolsiz tushuncha hosil bo'lmaydi. Insoniyat taraqqiyotining ibtidoiy davrini faqat ushbu davr yodgorliklarini ko'rsatish yoki rangli rasmlardan foydalanish orqali tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy tasavvurlarni shakllantirishda tarixiy hodisalalar obrazlarini o'quvchilar faol suratda idrok etishga qaratilgan usullardan foydalaniladi. O'qituvchi hikoyasining mazmunan ko'rgazmali va obrazli bo'lishi darslik matnidagi tarixiy hujjatlardagi voqea va tasviriy rasmlar badiiy adabiyot asarlari o'q uvchilarda tarixiy tasavvurlarni shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi materialni bayon qilayotganda tarixiy hujjatlardan ilmiy-ommabop va badiiy adabiyotlardan olingan yorqin tavsilotlarga hamda o'quvchilardagi mavjud tasavvurlarga suyangan holda ish tutadi. O'quvchilarning tarixga qiziqishining ortishi ularning muxim tavsilotlarini ajratib olishi va esda saqlab qolishlariga yordam beradi. Biroq o'quvchilarda aniq va puxta tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi bayonining jonli va emotsional bo'lishining o'zi kifoya qilmaydi, o'qituvchi o'quvchilarning faol fikrlashini tashkil qilishi va unga rahbarlik qilishi lozim.

O'qituvchi ko'rgazmali qurolni shunday ko'rsatib uning mazmunini tushuntirib hujjatlarni o'qib qo'ya qolmay, balki hikoyadagi eng muhim joylarini alohida ohang bilan ta'kidlashi, ko'rgazmali qurollarni matnlarni o'quvchilarning faol ishtirokida tahlil qilib, undagi eng muhim elementlarni ajratib chiqishi, o'rganilgan hujjatlardagi u yoki bu hujjatlarga ular diqqatini jalb qilishi lozim.

Tarix bo'yicha har bir sinf dasturi oxirida asosiy tushunchalar mazmuni belgilab beriladi. Bu tushunchalar kursning ilmiy mazmunini, g'oyaviy-nazariy asoslarini aniqlash va tarixiy materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish bo'yicha ish usullarini belgilab olishga yordam beradi. Tarixiy tushunchalarni hosil qilish deganda o'quvchilarning tarixiy faktlarning eng muhim belgilarini ikkinchi darajali belgilardan ajrata bilish, guruhlariga bo'la olishni, tarixiy voqea va hodisalalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni chuqur anglab tushunib olish ko'zda tutiladi. Ana shu taxlitda shakllangan mukammal tarixiy tushunchalar ilmiy bilimlar sistemasining vujudga



kelishida bamisoli zanjir vazifasini o'taydi.

Tarix o'qitish jarayonida tarixiy tasavvurlar bilan tushunchalarni shakllantirish uzviy boglangan bulib bir vaktning uzida amalga oshadi. Yukoridagi ta'kidlanganidek, tarixiy tushunchalarni shakllantirishda o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarini rag'batlantirish va unga rahbarlik qilish muhim o'rin tutadi.

Tarixiy tushunchalar hosil kilishda o'quvchilarning voqea va hodisalarni, analiz, sintez qila olish qobiliyatini o'z ichiga olgan fikrlash faoliyatida ta'limning faol metodlari muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish, o'quvchilarning ko'rsatmali qurollari, ta'limning texnika vositalari, tarixiy hujjatlar bilan ishlashlarini uyushtirish, ularga tarixni chuqur o'rganish bilan bog'liq bo'lgan turli amaliy xarakterdagi ishlarni tanishtirish alohida ahamiyatga ega. Bir turdagi voqea va hodisalar, tarixiy jarayonlar hamda sabab, oqibat bog'lanishlar mazmunini taqqoslab o'rganish, jamiyat taraqqiyotining ayrim ba'zi, bir umumiy qonuniyatlarini tushunib olish imkonini beradi. O'qituvchi voqea va hodisalarning sabab va oqibatlari o'rtasidagi aloka hamda bog'lanishlarni, ko'pincha dastlab bir mamlakat tarixini o'rganish vaqtida ochib beradi. Boshka mamlakat tarixini o'rganish paytida ilgari o'rganilgan hodisalarga duch kelgan paytda o'qituvchi o'quvchilarga bir-biri bilan o'xshash sabab natijali bog'lanishlar to'g'risidagi bilim va malakalarni o'rganilayotgan hodisalarni izohlab berishga, deduktiv suratda, tadbiiq etishlarga umumiyliklarni anglab olishlariga yordam beradi. Turli mamlakatlar tarixiy taraqqiyotidagi bir xil sabab va natijalarni muntazam suratda taqqoslab berish o'quvchilarni hodisalar o'rtasidagi ushbu bog'lanishlar tasodifiy bo'lmay barqaror va zaruriy qonuniyat ekanligi to'g'risida xulosa chiqarishga olib keladi.

Tarixiy rivojlanishning qonuniyatlarini chuqur o'rganishda taqqoslashining ahamiyati kattadir. Masalan: o'qituvchi qadimgi dunyo tarixining oxirlarida «Qadimgi Hindiston» yoki «Qadimgi Xitoy» mavzularini o'tayotganda, o'quvchilarga Qadimgi Xindiston yoki Qadimgi Xitoy davlatining paydo bo'lishining xuddi shu xaqidagi bilimlar bilan taqqoslab o'rganishni tavsiya qiladi. Shunday qilib ijtimoiy rivojlanish qonunlarini o'rganish uzoq muddatli jarayon bo'lib, u o'quvchilarda umumiy va zaruriy bilimlar va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ishlarini muhim tarkibiy qismidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. “Tarix o'qitish metodikasi” o'qituvchilar uchun. Toshkent 2014
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## О‘QUVCHILARDA TARIXIY BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

**Mamatvaliyeva Mahmuda**

Namangan viloyati Namangan tumani

11-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi

Tarix fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada uzluksiz ta’lim tizimida o‘quvchilarning tarixiy bilimlarini shakllantirish, tarixiy tafakkurni o‘stirish ularni ilmiy asosda tarixni tushunishga o‘rgatishga oid fikrlar berilgan.

**Kalit so‘zlari:** tarixiy bilimlar, tafakkur, malaka, ko‘nikma, milliy g‘oya.

O‘quvchilarning tafakkurini va mustaqil fikrlash qobiliyatini tizimli sur’atda, ya’ni ta’limning uzluksizligi tizimida o‘stira borish, ularning malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirish tarix o‘qitishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlaridan biri hamda tarixiy bilimlarni o‘zlashtirib olishning zarur shart -sharoiti hisoblanadi. Tarixiy bilimlarni egallab borish jarayonida o‘quvchilarning tafakkuri, malaka va ko‘nikmalarini o‘stira borish masalalari ko‘pgina psixologlar, metodistlar hamda amaliyotchi o‘qituvchilar e’tiborini o‘ziga tortib kelmoqda. Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimining asosiy boqichlaridan biri – umumiy o‘rta ta’limning V–IX sinflarida tarix o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi, ijodiy qobiliyatlari, malakalari hamda ko‘nikmalarini ma’lum bir maqsadga qaratgan holda, tizimli sur’atda o‘stira borish masalalari ko‘rib chiqilib, amaliy jihatdan hal etilib borilmoqda. V–IX sinflar “Tarixdan hikoyalar”, “Tarix”, “Jahon tarixi” hamda “O‘zbekiston tarixi” hamda o‘rta maxsus ta’lim tizimi uchun “Jahon tarixi” hamda “O‘zbekiston tarixi” darsliklarida o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi hamda malakalarini o‘stira borish vazifalari hisobga olingan. Ulardagi materialning bayon qilinish va umumlashtirilish xususiyati, tanlangan rasmlar va hujjatlarning matnlari, savol va toshpirlar tizimi o‘quvchilarning zehni o‘stira borish uchun bosqichma – bosqich tizimli sur’atda yordam berishga xizmat qiladi.

Tarix o‘qituvchisi o‘quvchilarni milliy g‘oyasi va vatanparvarlik nuqtai nazardan har bir ijtimoiy hodisani uning vujudga kelishi va rivojlana borishida, boshqa hodisalar bilan bog‘lanishi hamda o‘zaro munosabatlarida olib qarashga, hodisalarning sinfiy mohiyatiga kira bilishga, tarixiy jarayonning umumiy obyektiv qonuniyatlarini tushunishga o‘rgatishi lozim. Mustaqil O‘zbekistonimiz umumiy o‘rta maktablari o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni o‘stirish ularni ilmiy asosda tarixni tushunishga o‘rgatish bilan bog‘langandir.

Bu vazifalar VI – VII sinflarda tarix fanini o‘qitishda ham o‘quvchilar uchun og‘irlik qilmaydigan darajada qo‘yiladi. Uzluksiz ta’lim tizimida umumiy o‘rta ta’limdan keyingi bosqich hisoblanadigan o‘rta maxsus ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilimlari tobora chuqurlasha borishi va ko‘paya borishi bilan, ularning tafakkurini o‘stira borishga qaratilgan vazifalar ham murakkablasha boradi va bu bosqichda tarix kursini o‘qitishda o‘quvchilarning fikrlashga asoslangan malaka va ko‘nikmalarini hosil qila borish vazifalari — bu, tarixiy bilimlarni mustaqil suratda topib, tizimga solib, ularni amalga tatbiq eta bilishga o‘rgatish, pirovardida esa, o‘quvchilarni o‘tmishdagi hamda hozirgi zamondagi ijtimoiy hodisalarga nisbatan ilmiy nuqtai nazardain yondoshishga o‘rgatish demakdir.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimida o‘qitiladigan tarix fanlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tarix fanini o‘qitish davomida hosil qilinib boradigan malakalar guruhlarini shartli ravishda quyidagilarga ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Tarixiy bilim beruvchi manbalarni tahlil qilish, tarixiy voqealar hamda hodisalardagi eng asosiy va muhim narsani, ularning muhim belgilari va bog‘lanishlarini ajratib chiqish, tarixiy tushunchalarga ta’riflar berish malakalari;

2. Tarixiy bilim beruvchi manba mazmunini mantiqiy jihatdan bir necha qismga ajratish malakalari;

3. Tarixiy dalillar va jarayonlarni o‘z doirasida qarab chiqish hamda vaqt jihatidan ular o‘rtasidagi nisbatni aniqlash, xronologik va sinxronistik jadvallar tuzish malakalari;

4. Tarixiy voqealar, hodisalarni taqqoslash, ularning umumiy va alohida xususiyatlarini topish malakalari;



5. Tarixiy dalillarni tahlil qilish va taqqoslash asosida, induktiv hamda deduktiv xulosalar chiqarish usulidan foydalangan holda yakunlar yasash, yakunlarni, berilgan baholarni asoslab berish, tarixiy dalillar va umumiy xulosalarga tayangan holda to‘g‘ri isbotlay olish malakalari;

6. Tarixiy hodisalarning joyini aniqlash, tarixiy xaritani «tilga kirgizish», undagi izohlar va shartli belgilardan xatosiz foydalanish, kontur xaritani tarixiy mazmunda to‘ldirish va shu kabi malakalar.

O‘quvchilarda birorta malakani, masalan, tarixiy hodisalarni taqqoslash, isbotlab berish malakasini hosil qilmoq uchun, o‘qituvchi o‘sha mantiqiy operatsiyaning maqsadi va mohiyatini hamda uni bajarish usullarini tushuntirib, ularni aniq tarixiy materialga tatbiq etgan holda ko‘rsatib beradi. Ko‘rsatib berish paytida, mazmuni uncha murakkab bo‘lmagan material: taqqoslash uchun — moddiy madaniyatga doir ikki narsa, xulosa chiqarish uchun — mavzuning bir necha bo‘limidan iborat matni va shu singarilar tanlangani ma’qul. Masalan, umumiy o‘rta ta’lim tizimida insoniyat tarixida ilk davlatning paydo bo‘lishi jarayonlari xususida fikr bildirilganda bir necha qadimgi davlatlarning (Qadimgi Gretsiya, Qadimgi Rim, Qadimgi Xitoy va h.k.) paydo bo‘lishi, ularning insoniyat tarixida tutgan o‘rni xususida o‘quvchilarda bilimlar shakllantiriladi. Ular har bir qadimgi davlatlar haqidagi mavzularni o‘tganda qadimgi davlatlarni bir – biri bilan taqqoslash ko‘nikmasini egallagan bo‘lishi lozim. O‘rta maxsus ta’lim tizimida esa shu davlatlarning XX – XXI asrdagi tarixi, ularning rivojlanish bosqichlari, jahon hamjamiyatidagi o‘rni xususidagi bilim va malakalarni qiyosiy taqqoslagan holatda o‘rganishlari lozim.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, uzliksiz ta’lim tizimining o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimi bosqichlarida tarix darslarida o‘quvchilarda malaka va ko‘nikmalarni hosil qilinishi natijasida sog‘lom e’tiqodli, o‘tkir hissiyotli, yuksak didli, o‘z xatti – harakatlariga javob bera oladigan shaxsning ma’naviy dunyosini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: 2006
2. Sa’diyev A. Fuzailova G. Xasanova M. Tarix o‘qitish metodikasi. – T. 2008
- 3.



## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИДА ДЕМОКРАТИК ПРИНЦИПЛАР УСТУВОРЛИГИ

**Жўрабоев Н.Ю.**

Тошкент давлат транспорт  
университети доценти

**Мамаражабов Л.**

Тошкент давлат транспорт  
университети III курс талабаси

**Аннотация:** Мақолада Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг қабул қилиниши, аҳамияти ва унда демократик принципларнинг қўлланилганлиги тегишли моддалар асосида ёритиб берилган.

**Калит сўзлар:** Конституция, демократик принциплар, демократик давлат, фуқаролик жамияти, ҳуқуқий қафолатлар, Ҳаракатлар стратегияси.

Бундан 28 йил муқаддам ўзбек халқининг мустақиллик даври тарихида ғоят муҳим сиёсий воқеа юз берган эди. Ўшанда 1992 йил 8 - декабрда ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида Ўзбекистон Республикасининг Асосий қонуни – Конституцияси қабул қилинди. Конституция қабул қилинган қутлуғ сана ёши тобора улуғлашиб борар экан, унинг аҳамияти шу қадар буюк маъно касб этиб бораверади. Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасида таъкидланганидек: "...Бош қонунимизнинг ўрганиш, англаш, ҳаётга жорий этиш ва унга сўзсиз амал қилиш – барчамизнинг шарафли бурчимиздир" (1).

Дарҳақиқат, Конституция ўз моҳиятига кўра, нафақат халқимиз сиёсий-ҳуқуқий тафаккурининг юксак намунаси, балки, шу билан бирга, юртимизда демократик давлат ва фуқаролик жамияти барпо этишнинг ҳуқуқий қафолати ҳамдир. Бундай қафолатлар, хусусан, ундаги демократик тамойилларнинг қай даражада талқин этилганлиги билан белгиланади. Бу ўринда, демократиянинг умумэътироф этилган қуйидаги тамойилларини таъкидлаб ўтиш лозим бўлади.

Улар:

- халқнинг хоҳиш - иродаси эркинлиги;
- фуқароларнинг тенг ҳуқуқлиги;
- инсон ҳуқуқларининг устуворлиги;
- ҳокимият органларининг сайлаб қўйилиши;
- қонун устуворлиги, қонун олдида барча фуқароларнинг тенглиги;
- ҳокимият тармоқларининг тақсимланиши;
- кўшартиявийлик, сиёсий институтлар, мафкура ва фикрларнинг ранг-баранглиги.

Хўш, ана шу демократик тамойиллар Конституциямизда қай даражада ўз ифодасини топган?

Эътибор берган бўлсангиз, Конституциянинг "Муқаддима"сидаёқ шундай деб ёзилган:

"Ўзбекистон халқи: инсон ҳуқуқларига ва давлат суверенитети ғояларига, демократия ва ижтимоий адолатга садоқатини намоён қилиб, инсонпарвар демократик ҳуқуқий давлат барпо этишни кўзлаб, фуқаролар тенглиги ва миллий тотувлигини таъминлаш мақсадида ўзининг мухтор вакиллари сиймосида Ўзбекистон Республикасининг мазкур Конституциясини қабул қилади" (2).

Конституциямизнинг "Давлат суверенитети" деб номланган биринчи бобининг биринчи моддасида эса: "Ўзбекистон -суверен демократик республика" деб эълон қилинади.

Демократик тамойиллар, айниқса, Конституциянинг "Халқ ҳокимиятчилиги" бобида кенг ифода этилган. Энг аввало, халқ давлат ҳокимиятининг бирдан-бир манбаи сифатида қайд этилиб, Республика давлат ҳокимияти тизими демократик асосда қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимиятига бўлиниши принцигига асосланади (7 ва 11 моддалар) деб ёзилади.

Бинобарин, бундай принцип давлат ҳокимиятининг суистеъстимол қилмасликни қафолатлайди. Биз жаҳон демократик амалиётини эътиборга олиб, қонун чиқарувчи



органи олий ҳокимият деб олмоғимиз керак бўлади. Чунки, фақат шу ҳокимият ички ва ташқи сиёсатининг асосий йўналишини белгилайди ҳамда жамиятда қонун ҳукмронлигини таъминлайди.

Шу бобнинг 13 моддасида: “Ўзбекистон Республикасида демократия умуминсоний принципларга асосланади, уларга кўра инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни, кадр-қиммати ва бошқа дахлсиз ҳуқуқлар олий кадрият ҳисобланади”, деб ёзилган (3).

Конституция инсонни энг катта бойлик сифатида алоҳида кўрсатгани ҳолда фуқаро, жамият ва давлат ўртасидаги ўзаро муносабатларни оқилона ҳуқуқий ҳал этишни сиёсий жиҳатдан расмийлаштиради. Бошқача қилиб айтганда, демократик тамойилларга асосланган Конституциявий меъёрлар ва қонунларнинг устуворлиги, ўзаро муносабатларни мақбул ҳолга келтиришга йўналтирилганлиги мамлакатда барқарорликни ҳуқуқий жиҳатдан таъминлашнинг, фуқаролик жамияти асосларини қарор топтиришнинг асосий омилдир.

Маълумки, сиёсий партияларсиз ва жамоатчилик ҳаракатларисиз республикада вакиллик демократиясини тасаввур қилиб бўлмайди. Гарчи Республикамизда 5 та сиёсий партия, 1 та ижтимоий ҳаракат 200 дан ортиқ ижтимоий бирлашмалар фаолият кўрсатаётган бўлса-да, улар халқ билан ҳокимият ўртасида асосий боғловчи бўғин бўлган демократик институтга тезроқ айланишлари фоят муҳимдир.

Зеро, сиёсий партияларсиз ва жамоатчилик ҳаракатларисиз республикада вакиллик демократиясини тасаввур қилиб бўлмайди.

Конституциянинг иккинчи бўлимида демократиянинг инсон ва фуқароларнинг асосий ҳуқуқлари, эркинликлари ҳамда бурчлари билан боғлиқ тамойиллари баён қилиб берилган. “Ўзбекистон Республикасида – деб қайд этилади 18 моддада - барча фуқаролар бир хил ҳуқуқ ва эркинликларга эга бўлиб, жинси, ирқи, миллати, тили, дини, ижтимоий келиб чиқиши, эътиқод, шахси ва ижтимоий мавқеидан қатъий назар, қонун олдида тенгдирлар (4).

Асосий Қонунимиздаги Президентлик ҳокимияти демократик тамойиллар тизимида алоҳида хусусиятга эга. У Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари томонидан умумий, тенг ва тўғридан- тўғри сайлов ҳуқуқи асосида яширин овоз бериш йўли билан беш йил муддатга сайлаб қўйилади. Бундай тартиб АКШ, Финландия, Франция ва Россияда ўрнатилган. Германия, Италия, Греция ва Ҳиндистонда парламент томонидан ёки парламент аъзоларининг махсус комиссияси томонидан сайланади.

“Ўзбекистон Республикасининг Президенти - дейилади Конституциянинг 93-моддасида- фуқароларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларига, Конституция ва қонунларга риоя этилишининг кафолатидир” (5).

Конституциянинг мафкура, маҳаллий давлат ҳокимияти асослари, оммавий ахборот воситалари ва бошқа шу кабиларга оид моддалари ҳам демократик тамойиллар устуворлигига асосланганлигини қайд этиш лозим.

Биринчи Президентимиз таъбири билан айтганда: “Жамиятда демократия қай даражада эканлигини белгиловчи камида учта мезон бор.

**Биринчиси**, халқ қарорлар қабул қилиш жараёнларидан қанчалик хабардорлигидир. **Иккинчиси**, ҳукумат қарорлари халқ томонидан қанчалик назорат қилинишидир. **Учинчиси**, оддий фуқаролар давлат бошқаришда қанчалик иштирок этишидир.

Ана шу уч соҳада ҳақиқий силжишлар бўлмас экан, демократия ҳақидаги ҳамма гап сўзлар ё халққа хушомад қилиш, ёки оддий сиёсий ўйин бўлиб қолаверади. Бундай силжишлар эса, бир кунда бўладиган иш эмас” (6).

Дарҳақиқат, демократияни чуқурлаштириш давомли, узлуксиз ва доимий хусусияти эга бўлган жараёндир. Бу Республиканинг ривожланишига мувофиқ ҳолда фуқароларнинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилишнинг давлат, ҳуқуқий ва ижтимоий тизим ҳамда механизмларининг такомиллашиб боришини билдиради.

Хулоса қилиб айтганда, демократия жамиятнинг шаклланиши бир лаҳзада рўй берадиган жараён бўлмасдан, авваламбор, одамлар онги ва тафаккурида янгиланиш ва демократик кадриятларни мустаҳкамлаш билан боғлиқ узок ва давомли жараёндир. Бу борада “Мамлакатимизда демократик ислохотларни аниқлаш чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси” ҳамда давлатимиз, халқимиз ва жамиятимизнинг бугунги ҳамда келажак ҳаётининг энг муҳим устувор соҳалари ривожини ўзида мужассам этган том маънода тарихий, дастурий концептуал аҳамиятга эга муҳим ҳужжат ҳисобланган



Ҳаракатлар стратегияси бугунги кунда жонажон Ватанимиз тараққиётинг янги босқичга кўтаришда, инновацион ва индустриал ривожланиш сари одимлашда беқиёс ўрин эгалламоқда.

**Адабиётлар:**

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. -“Халқ сўзи”, 8-декабрь.
2. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси –Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017.
3. Ўша жойда.
4. Ўша жойда.
5. Ўша жойда.
6. Каримов И.А Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси - “Халқ сўзи”, 2010 йил 13 ноябрь (220-сон).



## TARIXIY MATERIAL ASOSIDA O‘QITISH

**Asqarov Akmalxo‘ja Mashrabxujayevich**

Marg‘ilon shahar 19-maktab

tarix fani o‘qituvchisi

e-mail:asqarov@inbox.uz

**Annotatsiya:** maqolada tarix fanini o‘qitish masalalari, metodikasi, tarixiy hodisalarga to‘g‘ri baho berish va faktlarni aniqlash asoslari, tarixiy tushunchalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarix, bilim, ko‘nikma, malaka, fakt, oddiy, murakkab, xususiy, umumiy, tarixiy tushuncha.

Tarix o‘qitish deganda, tarixiy material vositasida o‘quvchilarga bilim berish, ularni milliy istiqloq ruhida tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish zarur bo‘lgan jarayon, o‘qituvchi va o‘quvchilarning aqliy (ichki) hamda o‘quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi.

Tarix kursining mazmuni deganda, birinchi galda tarix dasturida belgilab berilgan tarixiy bilimlar ko‘lami, o‘quv materiali: uning asl mazmuni, o‘quvchilarning tarixiy materiallarni o‘zlashtirish olgan bilimlaridan foydalana bilish sohasidagi o‘quv usullari, ko‘nikma va malakalari sistemasi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarining eng oddiy shakllarini egallashlari ko‘zda tutiladi.

Ta‘limni muayyan pedagogik maqsadga yo‘naltirmoq uchun o‘qituvchi o‘rta ta‘lim va o‘rta maxsus ta‘lim tizimida tarix o‘qitishning maqsadini, uning asosini tashkil qilgan ta‘lim-tarbiya vazifalarini aniq belgilab olishi kerak. Biroq, 5-9 sinflarda tarix o‘qitish oldida turgan umumiy maqsad bilan ta‘lim-tarbiya vazifalarini bilib olishning o‘zi kifoya qilmaydi. Shu bilan birga, umumiy vazifalarni amalga oshirishda har bir sinfda o‘qitiladigan tarix kursining o‘rni, vazifalari, o‘z navbatida mazkur kursni o‘qitishning ta‘lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishda uning har bir bo‘limi, bo‘limdagi mavzular, xatto har bir darsda o‘tiladigan mavzuning ham juz‘iy vazifalari oldindan belgilab olinishi kerak. Chunki har bir tarix darsining butun tarix kursining umumiy darslar sistemasida tutgan o‘rni bor, bu darsda o‘rta ta‘lim va o‘rta maxsus ta‘lim tizimida tarix o‘qitish oldiga qo‘yilgan umumiy vazifaning qandaydir elementi yoki bo‘lagi xal etiladi. Tarix o‘qitish maqsadlarini belgilashda, avvalo ta‘lim va tarbiyaning uzviy birligini, o‘qitish davomida o‘quvchilarning g‘oyaviy-siyosiy saviyasi mutassil o‘zib borishini, ularda ko‘nikma va malakalar hosil qilishni hamda ijodiy faoliyatga tayyorlanishlarini nazarda tutmoq kerak.

Ta‘limdan kuzatilgan maqsadlarning muvaffaqiyatli ravishda amalga oshmog‘i uchun, ular ilmiy asosda belgilanmog‘i lozim. Bu maqsadlar tarix ta‘limining mazmuni va vazifalari bilan belgilanadi. Shuningdek, bunda ta‘limning boshqa shart-sharoitlari: o‘quvchilarning saviyasi, bilimi, ko‘nikmalari va malakalari, dars uchun ajratilgan vaqt, darsni o‘tish imkoniyatlari va boshqalar ham nazarda tutiladi. Ta‘lim maqsadlarining ilmiy asosda belgilanishi ularning realligini ta‘minlaydi. Ta‘limdan ko‘zlangan maqsadlarni o‘qituvchi naqadar chuqur anglab olgan bo‘lsa, tarix o‘qitish mazmunan shunchalik g‘oyaviy va tarbiyaviy natija beradi. Binobarin, tarix DTS asosida o‘quvchilarga o‘rgatiladigan tarix ta‘limidan ko‘zda tutilgan maqsad, ta‘lim-tarbiyaviy vazifalar oldindan aniq belgilanishi o‘quvchilar bilimining rivojlanib, chuqurlashib borishiga, voqealarning mohiyatini puxta tushunib olishlariga yordam beradi, zarur ko‘nikma va malakalarni yuzaga keltiradi, o‘quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini o‘stiradi. Tarix o‘qitishning samarali bo‘lishida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish muhim rol o‘ynaydi. Dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning bilish faoliyatining bo‘lishligi juda ko‘p omillarga, avvalo, mashg‘ulot mazmunining g‘oyaviy va ilmiy-nazariy jihatdan yuqori saviyada bo‘lishiga, o‘qituvchining eng muhim jonli va ishonarli tarzda ochib bera olishiga va bu voqealarni chuqurroq o‘rganib olishning muhimligini o‘quvchilarning tushunib olishi hamda ularda o‘rganishga ishtiyoq uyg‘otish bog‘liqdir. Bu o‘rinda o‘qituvchining o‘quvchilarni mashg‘ulot mazmunini o‘zlashtirib borishi ustidan qilingan nazorati, o‘quvchilar o‘rganishini boshqara bilishi, shuningdek ularning yangi bilimlarini o‘zlashtirish uchun o‘zlaridagi mavjud bilim va malakalardan foydalana bilishi, ya‘ni o‘zlashtirilgan bilim va egallangan malakalarini aktuallashtirilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Tarix kursining mazmuni o‘rta ta‘lim va o‘rta maxsus ta‘lim tizimida uni o‘qitish va o‘quvchilarning o‘rganish faoliyati orqali ularning ongiga, tarbiyasi va tafakkuriga ta‘sir ko‘rsatadi, ularning kamol topishiga yordam beradi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Lafasov 7-sinf Jahon tarixi darsligi.-T.: Cho'lpon. 2005
2. M.Lafasov. 9-sinf Jahon tarixi o'quv qo'llanmasi.-T.: A.Qodiriy nomidagi merosi.-T.: 1999
3. U.Jo'rayev. 7-sinf Jahon tarixidan o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.-T.: 2000
4. N. Norqulov, U.Jo'rayev . 8-sinf O'zbekiston tarixi. Sharq. T. 2000
5. J.Raximov. 9-sinf O'zbekiston tarixi. Toshkent. 2000



## FORISH TOJIKLARINING NIKOH TO'YI BILAN BOG'LIQ URF-ODATLARI

**Davlatova Hakima Babaydavlatovna**

Jizzax Davlat Pedagogika Instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qitish

metodikasi Tarix I kurs magistranti

**Annotatsiya:** Bugungi kunda Forish tumani aholisining o'n foizidan ko'prog'i tojiklardir. Geografik joylashuvi, o'ziga xos etnik ildizlarga ega bo'lgan bu xalqning shevasi, madaniyati, turmush tarzi va urf-odatlari boshqalardan qisman bo'lsa ham farq qiladi. Jizzax vohasidagi tojik qishloqlarining tarixi, an'anaviy turmush tarzi, urf odat va marosimlari haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Jizzax vohasi tojiklarining an'anaviy turmush tarzi, urf odatlari va marosimlari.

Tabiiy va geografik jihatdan Nurota tog'lari taxminan 400 km ga cho'zilgan janubi-sharqdan shimoli-g'arbga, o'rtacha kengligi bilan 50-70 km. Shimoldan taxminan 5-6 km tog' etagi, hududi Qozog'iston Qizilqumning shimolidan boshlanadi Cho'l va Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi. Nurota tog'larning janubi-g'arbiy etaklari Zarafshonning quyi oqimiga cho'ziladi. Mintaqa tabiiy va geografik jihatdan cho'llardan, tog' etaklaridan, tepaliklardan va pasttekislikdan iborat tog'lar. Bu yerda yashovchi aholi Nurota tog'larining shimoliy qismi etnik jihatdan ancha murakkab va nisbatan kam soha mutaxassislar tomonidan o'rganilgan. Biroq, mintaqaning etno-geografik xususiyatlari ba'zi mutaxassislarni jalb qildi. Masalan, A.N. Xoroshxin, M.S. Andreev, B.H. Karmisheva, A. Muxtorov, M. Nurnazarov kabi tarixchilar va geograflar turli ekspeditsiyalar tarkibida joylar va hududlarni qisman o'rgangan. Muhimi, ular tomonidan to'plangan etnogeografik ma'lumotlar to'liq bo'lmagan bo'lsa-da, mahalliy xalqlar tarixi hali ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan.

Barcha insonlarning eng baxtli kunlaridan biri sifatida nikoh to'ylari aytiladi. Keksalarimiz "Har kimni to'yga yetkazsin, orzu-havas ko'rsin" deb duo qiladi. Nikoh so'zi arabcha "uylanish, er-xotinning qovushishi demakdir.

Har bir xalqning milliy urf-odatlari, turmush tarzi, kiyinishi, to'y marosimlari, bolalar o'yinlari va boshqalarda turlicha bo'ladi.

XX asrning o'rtalariga qadar forishliklarning to'ylari va bazmlari eskicha uslubda o'tkazilar edi. Odamlar olov atrofida o'tirishar, ikki-uch kishi navbatma-navbat qo'shiq kuylashar va shoirlar esa muxammas kuylashardi. Har bir qishloqning o'z hofizlari va shoirlari bo'lgan. Masalan, o'tmishda Zokir-hofiz, Firoqi va usta Qudriddin Sintabi, Berdixon hofiz xalqning eng yaxshi shoirlaridan biri hisoblangan.

To'ylar asosan kechasi bo'lib o'tgan. Kunduzi poyga, gushtingiri (kurash), ko'pkari bo'lgan. Keyin ziyofat boshlanishidan oldin, uzoqdan kelgan mehmonlarni kuyovning qo'shnilari mehmon qilgan. Uy egasi mehmon va uning eshagi (ot, eshak) ning ovqatlanishi va uxlashi uchun javobgar edi. Jamoat oshxonalari va mehmonxonalar bo'lmagan taqdirda, bu tog' odamlarining eng yaxshi odatlaridan biri bo'lgan.

Nikoh ota-onalarning ruxsati va duosi bilan, bir necha bosqich qilib o'tkaziladi. o'g'il voyaga yetganda ota-onasi unga mos keladigan qizni izlay boshlaydilar. Qizni topgandan keyin yigitning xolalari yoki ammalari qizning uyiga uni ko'rish, ota-onalari bilan va ehtimoliy kelinning uyidagi ahvoli bilan tanishish uchun biror bahona bilan kiradilar. Shundan so'ng qo'shnilari va tanishlari tanlangan qizning oilasi haqida surishtiradi. Ijobiy javob olingan holda uyga sovchilar yuboriladi. Sovchilar fотиha qilinadigan kunni belgilaydilar. Shu kuni qizning uyida atrofdagi taniqli oqsoqolar, mahalla oqsoqoli yig'iladi. Sovchilar o'zining kelish maqsadini bayon etganlaridan keyin «non sindirish» marosimi boshlanadi. Shu paytdan boshlab yoshlar bir-biri bilan bog'langan, fотиha qilingan deb hisoblanadi. Fотиha to'yi nikoh tuziladigan va to'y o'tkaziladigan kunni tayinlash bilan tugaydi. To'ydan bir necha kun avval qiznikida «qiz oshi» marosimi o'tkaziladi, unga qiz o'zining yaqinlari va o'rtoqlarini taklif etadi.<sup>1</sup>

Nikoh marosimlari-kelinning uyida to'y o'tkazlgandan so'ng, masjid imomi ikki yoshga «Xutbai nikoh» ni o'qiydi, shundan so'ng ular xudo oldida er-xotin deb e'lon qilinadi. Imom yoshlarga er va xotinning huquqlari va majburiyatlarini tushuntiradi. Kelinni kuyovning uyiga yuborishdan avval kelinnikida ota-ona bilan xayrlashish marosimi bo'lib o'tadi. Kelin bilan birga qarindoshlari va yaqin o'rtoqlari ham boradi. Ular qo'shiqlarni aytadilar («O'lan» va «Yor-yor»



qo'shiqlari). FHUOD dan yoshlarning fuqarolik nikohini qayd etish uchun guvohnomasini olish uchun borishadi.

To'y marosimi kuyov tomonida ham o'tkaziladi. Kelinni kuyovning uyida kutib olishdan haqiqiy to'y boshlanadi. To'y tugaganidan keyin ertalab azonda «Kelin salom» marosimi boshlanadi. Marosim boshlanishiga yaqin hovlida kuyovning ota-onasi, barcha yaqin qarindoshlari va yaqin qo'shnilari yig'iladi. Ularning hammasi navabti bilan kelinning oldiga kelib, o'zining tilaklari, sovg'alari va duolarini baxshida etadi. Kelin har bir kishiga beligacha egilib salom berishi lozim. Shu tariqa bayram tugab, oilaviy hayot boshlanadi.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Tolipov F.S. Nurota vohasi aholisi oilaviy turmish tarzida jamoa an'analari.-Toshkent.:2006 yil
2. DAVLATOVA, K., & NEMATOV, O. (2021). Tajiks of jizzakh oasis: traditional way of life, customs and traditions and rituals. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*, 27(3), 1324-1329.
3. Jumanazarova, D., & Davlatova, H. (2021). Customs Of Population In Jizzakh Oasis Associated With Chilla. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 3(04), 63-66.
4. Khakima, D. (2021). Customs Related To Tadjiks' Wedding In Jizzakh Oasis. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 3(04), 38-41.
5. Davlatova, K. Opportunities and Prospects for the Development of Ecotourism in the Jizzakh Oasis.



## TARIX DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Imomaliyeva Xayriniso Choriyevna**

Termiz shahar 12-sonli umumta'lim maktabi  
tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada interfaol ta'lim texnologiyalari va ularni dars jarayonida qo'llash bo'yicha nazariy va amaliy tushunchalar keltirilgan bo'lib, tarix darslarida qo'llash bo'yicha ko'rsatma berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** interfaol, innovatsiya, texnologiya.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Interfaol usullar hilma-hil bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Shu o'rinda mazkur tushunchaga izoh berib o'tish lozim: «Interfaol» so'zi inglizcha «interact» so'zidan olingan bo'lib, «Inter» - «o'zaro», «act» - «harakat qilmoq» ma'nolarini anglatadi. Interfaol - biror buyum (masalan, kompyuter) yoki shaxs bilan o'zaro aloqada yoki dialogda bo'lgan holatni anglatadi.

Hozirgi kunda barcha sohalarga jadal joriy etilib borayotgan zamonaviy bilimlarni egallashga qaratilgan fanlar samarali o'qitilyaptimi? O'quvchilar kasbiy faoliyati sohalari uchun zarur ko'nikmalariga ega bo'lib borayaptilarmi? Bugungi kunda barcha o'qituvchilar dars mashg'ulotini to'g'ri loyihalay oladimi? Dars mashg'ulotining samaradorligi qanday omillarga bog'liq? Bu kabi savollarga hozircha ijobiy javob bera olmasligimiz, achinarli holdir. O'tkazilgan anketa tekshiruvlariga ko'ra Termiz shahridagi ayrim ta'lim muassasalarining aniq bir guruhlarida fanlardan olingan nazorat ishida o'quvchilar nisbatan past baholanganlar. Bu past sifat ko'rsatkichidir. O'quvchi bugungi kunda ta'lim sohasini egallar ekan, kelgusi ta'lim bosqichini davom ettirishi uchun zamonaviy texnik va kommunikativ vositalardan samarali foydalana olish salohiyatiga ega bo'lishi, xususan: zamonaviy taraqqiy etgan jamiyatda axborot va axborot texnologiyalarining o'rnini bilish ko'nikmalariga ega bo'lishi; global kompyuter tarmoqlarida ishlash va ular orqali foydali axborotlar olish va ulardan ijodiy fikrlashni o'stirishda foydalanish usullarini egallashi talab etiladi.

Jamiyatning axborotlashuvi ta'lim tizimida uzluksiz innovatsiyalarni talab etadi. Bugun har qanday uslub darhol eskirishi va yangi metodlar bilan boyitilishi mumkin. Dars mashg'ulotida kerakli natijalarga erishish qaysi omillarga bog'liq?

Dunyoning turli mamlakatlarida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ta'limda innovatsiyalarni qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Ularda «innovatsiya», «interfaol usullar», «innovatsion texnologiyalar» to'g'risida yaxshi axborotlar to'plangan, biroq axborot texnologiyalarini ta'lim muassasalarida o'rgatish samaradorligini orttirish bo'yicha aniq tavsiyalar yetarli emas. Shuning uchun asosiy maqsad yuqori darajada o'zlashtirish natijalariga erishishni ta'minlovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish, xususan, zamon talab etayotgan pedagogik innovatsiyalardan foydalanish masalalarini tadqiq etishdan iboratdir. Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni qo'llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- o'quv fanining aniq maqsadini aniqlash;
- fanning hajmi va mazmunini aniqlash;
- zarur bo'lgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;
- fanning moddiy va texnik ta'minotini yaratish;
- ta'lim oluvchilarning xususiyatlarini o'rganish;
- o'qituvchining tayyorgarligi va dars mashg'ulotini loyihalash.



Yuqoridagi vazifalar ichida eng muhimi, bu o'quv jarayonini tashkil etish uchun eng maqbul bo'lgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishdir. Bu muammolarni u yoki bu aniq bir usulni tavsiya etish bilan, ayniqsa, pedagog reproduktiv ta'lim usullarinigina qo'llashni maqsad qilgan bo'lsa, hal etib bo'lmaydi. Maqsadga erishishning eng to'g'ri yo'li, bu dars mashg'ulotini loyihalashda integrallashgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan darsning turli bosqichlarida samarali foydalanish imkoniyatlarini izlashdir. Informatika fanini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning quyidagi metodlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir o'yinli texnologiyalar; muammoli o'qitish; dasturlashtirilgan o'qitish; kompyuterlashtirilgan o'qitish; modulli o'qitish.

Bu texnologiyalar o'quv mavzusi maqsadidan va mavzuning mazmunidan kelib chiqib, darsning turli bosqichlarida turlicha qo'llanishi mumkin. Maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, fanni o'qitishda g'oyat samarali bo'lgan qator o'yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Mutaxassislarining fikricha, insonning asosiy faoliyat turi uch ko'rinish: mehnat faoliyati, o'yin faoliyati, o'quv faoliyatida shakllanadi. Ularning barchasi o'zaro bog'liq holda sodir bo'ladi. Ta'kidlashlaricha, bolalarning maktabdagi o'quv materiallari asosidagi aqliy harakatlarini shakllanish qonuniyatlari o'yin faoliyatlarida tarkib topadi. Biroq o'yinli ta'limni o'quvchilar bilan ishlashdagi asosiy ta'lim shakli deyish to'g'ri emas. U o'quvchida bilish qobiliyatini shakllantirmaydi, biroq ularning bilish faolligini oshiradi, xolos. O'quvchini aqliy rivojlantirishga yordam beruvchi quyidagi guruhdagi o'yinlarni ajratish mumkin.

*1-guruh.* Buyumlar va predmetlarga bog'liq bo'lgan predmetli o'yinlar. Bunda o'quvchi o'yinchoq-predmet orqali moddiy olamni, ularning xususiyatini anglashi mumkin.

*2-guruh.* Intellektual faoliyatni shakllantiruvchi sujetli — rolli ijodiy o'yinlar. Masalan, «Baxtli tasodif», «Nima? Qayerda? Qachon?» va boshqalar. Bunday o'yinlar nafaqat ko'ngil ochuvchi vosita, balki ulkan evristik va ishontiruvchi energiya manbaidir.

*3-guruh.* O'quvchining aqliy qobiliyatini rivojlantiruvchi tayyor qoidalarga asoslangan didaktik o'yinlar. Qoidalarga ko'ra, u o'quvchidan anglashni, taqqoslashni, qismlarga ajratishni, umumlashtirishni, muhimi bilishni talab etadi.

*4-guruh.* Kattalarning kasbiy faoliyatlarini ifodalovchi texnik-konstruktorlik o'yinlari. Ular o'quvchida o'z ishini rivojlantirish, zaruriy materialni yig'ish, o'zini va o'zgarlar faoliyatini tanqidiy baholash imkoniyatlarini hosil qiladi. Mehnat faolligi bilish faolligiga undaydi.

*5-guruh.* Psixik muhitda sodir bo'luvchi intellektual o'yinlar. O'quvchilarning tayyorgarlik darajalarini ko'rsatuvchi taqqoslash imkonini beruvchi, musobaqa asosida o'tkaziladigan o'yinlar. Ular o'zini shakllantirishga va demak, aqliy faollikka undaydi. Yuqorida tavsiflangan o'yinlarni o'quv jarayonida qo'llash natijasida o'quvchilarni o'quv bilim faoliyatlarini keng boshqarish imkoniyatlari hosil bo'ladi.

Tajribalardan kelib chiqib, quyida fanlarni o'qitishda samarali qo'llash mumkin bo'lgan quyidagi o'yinli texnologiyalardan namunalar keltirib o'tamiz:

*Breyn-ring.* Bu o'yin 2-guruhga kirib, unda har birida 5–6 nafardan o'quvchi qatnashgan jamoalar soni 2 tadan 5 tagacha bo'lishi mumkin. Boshlovchi har bir guruhga qisqa javobli savollar beradi. Agar ishtirokchilardan biri birinchi bo'lib to'g'ri javob bersa, qolgan barcha savollar faqat shu ishtirokchiga beriladi va har bir to'g'ri javob uchun olingan ball to'planib boradi. Agar to'plangan ballni vaqtida o'z jamoasi hisobiga tushirib turmasa va o'yinni to'xtatmay, o'yin davomida noto'g'ri javob berib qo'ysa, o'sha ishtirokchi to'playotgan barcha ballar kuyib ketadi. Demak, qatnashuvchi o'zi istagan paytda o'yinni to'xtatishi va to'plagan ballni jamoa hisobiga tushirishi kerak. Qolgan savollarga endi boshqa ishtirokchilar javob berishi lozim va ular ham o'z jamoalari hisobiga ball to'plash imkoniga ega bo'ladilar. Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball.

*Ishonarli tarix.* O'yin 2-guruhga tegishli bo'lib, o'quvchilar xotirasini mustahkamlashga va ijodiy fikrlashga qaratilgan. Bunda ular keltirilgan tarixiy voqeani diqqat bilan o'rganib chiqib, to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlashlari kerak bo'ladi.

*Zanjir o'yini.* Guruh 4 ga bo'linib, har bir guruhdan 1 o'quvchi doska oldiga chiqariladi. 1 o'quvchi fanga tegishli atamani aytadi. Keyingi o'quvchi oldingi o'quvchi aytganini va o'zinikini qo'shib aytadi. Undan keyingisi oldingi 2 o'quvchi aytgan atamalarga yana o'zi yangisini qo'shib aytadi. O'yin shu tariqa davom etadi, adashgan o'quvchi o'yindan chiqadi, eng oxiri o'yindan chiqib ketmay qolgan o'quvchi rag'batlantiriladi. O'yin xotirani mustahkamlashga juda qo'l keladi.

*Karrali sonlar.* O'yinda ishtirok etuvchi guruh talabalaridan tuzilgan jamoa o'yinga shay turadi. Navbati bilan sonlar tartibi keltiriladi. Lekin to'rtga karrali sonning navbati etganda, shu



sonning o'rnida talaba, albatta kompyuterning biron-ta buyrug'ini yoki yordamchi klavishning vazifasini aytishi shart. Qoidani buzgan har bir o'quvchi o'yinni tark etadi. Ma'lum vaqt davomida o'yinni faol davom ettirgan ishtirokchi g'olib sanaladi. O'yin xotirani charxlashda juda samarali hisoblanadi.

*Do'stlar davrasida.* O'yin 3-guruhga tegishli bo'lib, talabalarning bir necha nafari kompyuterning turli xil qurilmalari yoki operatsion tizimning turli xil buyruqlari vazifasini bajaradilar. Ular o'zlarining do'stlari ishtirok etgan davrani topib olishlari kerak. Buning uchun kompyuterning tashqi va asosiy qurilmalari yoki ichki va tashqi buyruqlar bir-birini topib olishi kerak. Do'stlar qo'l ushlab davra quradilar va o'zlarini tavsiflab beradilar. Bu o'yin bilimlarni mustahkamlaydi va talabalarda bir-birlariga bo'lgan yordam hissini shakllantiradi.

*Kim chaqqon?* Guruh ikkiga bo'linib, har bir guruhdan bittadan o'quvchi doska oldiga chiqariladi. Bir o'quvchi fanga tegishli atamani o'zining maydoniga yozadi. Keyingi o'quvchi oldingi o'quvchi yozmagan qo'shimcha atamani ishlatadi. O'yin shu tariqa davom etadi, adashgan o'quvchi o'yindan chiqadi. Kimning maydonida eng ko'p to'g'ri, mantiqiy bog'langan tushunchalar paydo bo'lsa, shu jamoa g'olib sanaladi. O'yin xotirani mustahkamlashda va takrorlashda qo'llaniladi.

*Men kimman?* Bu kompyuterning qurilmalarini tavsiflashda eng yaxshi usuldir. Bir o'quvchi o'zining «Kimligini topolmayapti?» Unga boshqa o'quvchilar yordamga keladi. «Men qayerda ishlatilaman?», «Eng yaxshi qobiliyatim qachon namoyon bo'ladi?», va hokazo. Qanchalik ko'p savol berilib, sharhlar so'ralsa, shunchalik o'quvchi bali kamayadi. Kim topqirroq bo'lsa, tezroq jumboqni yechishi kerak bo'ladi. Nafaqat qurilmalarda keyinchalik dasturiy ta'minotlar, menyu bo'limlarining vazifalarini tavsiflashda ham o'yindan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin. O'yin o'quvchida obyektlarning xususiyatlarini anglashda, xotirani rivojlantirishda, bilimlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi barcha mulohazalarni umumlashtirib, o'yinli texnologiyalarni qo'llash natijasida quyidagi mulohazalarni tavsiya etamiz:

1. O'yin turli yoshdagi bolalar faoliyatini rivojlantirishning mustaqil shakli hisoblanadi.
2. O'yinlar ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o'z-o'zini anglash faolligini oshirishdagi eng erkin shakldir.
3. O'yin rivojlantiruvchi amaliyot, sababi: bolalar o'ynaganlari uchun rivojlanadilar, rivojlanish uchun o'ynaydilar.
4. O'yin o'z-o'zini anglashda, o'z-o'zini boshqarishda aql va ijodda erkinlikdir.
5. O'yinda o'quvchilar nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llash imkoniga ega bo'ladilar, hodisalar va fanning mavjud xususiyatlarini tushuntirish uchun savollarni aniq ifodalay boshlaydilar.
6. O'yinda o'quvchilar o'z fikrini bayon eta va himoya qila oladilar.
7. O'yin bolalarning asosiy muloqot maydoni bo'lib, unda o'zaro shaxsiy muammolar hal etiladi. Insonlar orasidagi o'zaro munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta'lim texnologiyalarini tarix darslarida quyidagicha tadbiq etish mumkin.

Mavzu: Chingizxon bosqini.

Dars boshlanishi oldidan sinf o'quvchilari jo'r ovozda bugungi darsimizning shiorini aytishadi.

O'qituvchi: Bizning shior.

O'quvchilar: "Tarixingni bilmasam seni, bolam dema vatanim meni".

O'qituvchi tomonidan yangi mavzu e'lon qilinib, dars maqsadlari bilan tanishtiriladi va sinf o'quvchilari kuchlari teng bo'lgan uch guruhga ajratiladi.

Buning uchun dastlab gurunlar o'zlariga sardor tanlaydilar hamda sardor doskaga chiqib yashirin turgan so'zlar asosida guruh nomini e'lon qiladi. Bu quyidagi so'zlar.

1. Xorazmshohlar.
2. Buxoro.
3. Samarqand.

Guruhlarning nomlari doskaga yozilib qo'yiladi va har bir guruh qo'lga kiritgan ballar guruh nomi yoniga ilinib boriladi.

Darsning keyingi bosqichida uyga vazifani so'raladi.

Quyida tartibda olib boriladi.

I shart.

"Aqliy hujum" metodidan foydalanib o'quvchilarning bilimlari aniqlanadi.

Buning uchun dastlab yurtimiz davlatchilik tarixida bosqinchilarga qarshi kurashi to'g'risida savollar beriladi.



1. To'maris jasorati haqida gapirib bering.
2. Shiroq jasoratining davlatchiligimiz tarixidagi o'rni.
3. Qoplon deb nom olgan Spitamen kimga qaeshi kurshdi.
4. Muqanna boshchiligidagi qo'zg'lon haqida nimani bilasiz.
5. Chingiz so'zinig ma'nosi'
6. Iskandari Soniy kim.
7. G'oirxon qaysi hududning noibi edi.
8. Xorazmshoh elchilarni saqol mo'yovini qirishi buyurad buning ma'nosini aytib bering.
9. "Turklar onasi" kim edi.
10. "Davlat kengashini" kim tashkil qilgan.

II Shart.

Sanalarni so'zlatib. Bunda har bir guruhga tarqatmaga yozilgan quyidagi yil sanalar beriladi.

I Guruhga.

1. 1218 yil.
2. 1206 yil.
3. 1207-1208 yillar.

II guruhga.

1. 1218- 1219 yillar.
2. 1216 yil.
3. 1218 yil.

III guruhga.

1. 1206 yil.
2. 1207-1208 yillar.
3. 1218 yil.

III Shart.

Xarita so'rash. Bunda guruh o'quvchilaridan hohlovchilar chiqi quyida so'raladigan davlat va xududlarni topib berganliklariga ko'ra rag'batlantiriladi.

Yangi mavzuni bayoni

Yangi mavzu bayonida axborot texnologiyalaradn foydalanib, proektor orqali namoish qilib boriladi.

Shu bilan birga doskaga yangi mavzu bo'yicha sanalar yozilib boriladi.

Quyidagilar.

1. 1219 yil.
2. 1220 yil fevral
3. 1220 yil mart.
4. 1220 yil aprel.
5. 1220 yil iyul.

Yangi mavzuni yoritishda o'qituvchi ilmiy adabiyotlar asosida fikrlar asosida yangiliklar berib boriladi.

Darslik asosida mavzu yoritish davomida Abdulla Sotliqovning "Xorazmshoh Jaloladdin Mangubrdi" asarida o'quvchilarga quyida parcha o'qib eshittiriladi.

"...shu sababdan sulton qo'shinni 20 da oqtiq shaharlarga bo'lib yubirdi. Jumladan, O'troga 30ming otliq, Buxoroga 30 ming, samarqandga 40 ming, Urganchga 70ming otliq qo'shinni joylashtiradi. An- Nasaviyning ta'kidlashicha moboda u qo'shinini tarqatib yubormay bit joyga yig'ib, mo'g'illar bilan jang qilganida edi, ularni yer yuzidan supirib tashlangan bo'lardi." Snu bilan birga proektor orqali Chingizxon, Jalolladin Mangubrdi, Temur Malik va mo'g'illar bilan chingiziyalarning urush harakatlari aks etgan rasmlar ko'rsatilib boriladi.

Yangi mavzu o'qituvchi tomonidan og'zaki tarzda yoritib bo'lingach, o'quvchilarni mavzuni o'zlashtirganliklarini aniqlashga qaratilgan o'yinlarga asoslangan sinovlar olib boriladi.

Darsni mustahkamlash.

I shart.

Matn tuzish. Bunda quyidagi so'zlar mavjud bo'ladi.

G'oirxon, "Lashkari Birun", Badriddin Amid, Safiy Aqra Hojib, 5 oy, Qora hojib, g'oitxonning qo'lga olinishi.

II Shart.

Bunda har bir guruh o'z nomlarini mavzu esda sqalab qolganlari bo'yicha gapirib beradilar.



Хоарзмshohlar

Buxoro

Samarqand guruhlar har bittasi o'z guruh nomlari to'liq va lo'nda gtarzda ochi berishlari kerak bo'ladi.

III Sart.

Bu shartda har guruh sardori tarqatmani oladi va unda ko'rsatilgan atamaga izoh berganliklariga qarab rag.batlantiriladi.

Tarqatmalarda quyidagi so'zlar yoziladi.

1. Sig'noq.
2. Jand.
3. Banokat

IV Sart.

Bunda o'quvchilarni savol- javob asosida bilimlaridagi bo'shliqlar aniqlab olinadi. Bunda faqat o'quvchilar "Ha", "Yoq" tarzida javob berishlari kerak bo'ladi bunda o'quvchidan bilimdonlik balki diqqatni bir joyga to'plash va topqirlik kabi jihatlarini namoyon qiladilar.

1. Chinziylarning yurtimizga bosqini to'g'risida Juvayni yozib qoldirgan. Ha.
2. Xo'jand geografik jihatdan hozirgi Turkmanistonga to'g'ri keladi. Yo'q.
3. Temur Malik otliq qo'shinga tayanib mo'g'illarga qarshi krashgan. Yo'q.
4. Yangikent shahri mo'gillardan qaytarib olingan. Ha.
5. 1220 yilning yozida Nashxab, Termiz kabi xududlar qo'lga kiritilgan. Ha.
6. Cningizxin keyin katta qo'shinni Xorazmga yo'naltiradi. Ha.
7. Jaloladdin Manguberdi Xorazmshoh deb e'lon qilinmagan. Yo'q.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda biz bolani jismoniy jihatdan o'stiruvchi oddiy o'yinlardan tortib, kattalar orasida ham mashhur bo'lgan intellektual o'yinlardan iborat bir qancha o'yinlar «ombori»ga egamiz. Barcha o'yinlarda o'yinchi o'yin shartlarini tezda o'zlashtiradi va o'ziga belgilangan vazifani qabul qiladi. O'yin qoidalarini bajarish jarayonida o'yinchi o'zining maqbul qarorlarini o'yindagi muammolarni hal qilishda erkin qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'yindagi musobaqa esa shaxsiy sifatning tinmay yaxshilanib borishiga sabab bo'ladi. Zamonaviy axborot texnologiyasini yaxshi bilgan va undan to'g'ri maqsadlarda foydalana olgan o'quvchigina kelajakda o'z qobiliyatlarini takomillashtirishi, kasbiy faoliyatida to'g'ri foydalana olishi va albatta komil inson sifatida shakllanishi mumkin.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Н. Х. Авлиякулов. Педагогическая технология. — Ташкент, 2009.
2. К. Ismanova. Amaliy dars mashg'ulotlarini innovatsion usullar yordamida tashkil etish. — Ta'lim muammolari jurnali. 2-son, 2012-yil.
3. О. С. Абдуллаева. Повышение эффективности процесса подготовки к педагогической деятельности студентов вуза. — Журнал «Молодой ученый». №10, 2013 г.
4. <http://uz.infocom.uz/2017/12/09/oqitishda-oyinli-texnologiyalardan-foydalanish/>



## “TEMUR TUZUKLARI”DA SALTANAT BOSHQARUVI

**Saida Isoqova,**  
NamDU, Tarix yoʻnalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola keng kitobxonlar ommasiga moʻljallangan boʻlib, sohibqiron Amir Temurning davlati, davlat boshqaruvi, saltanat tartib-qoidalari, “Temur tuzuklari” asaridagi gʻoyalari, qaror va oʻgʻitlari haqida soʻz boradi.

**Kalit soʻzlar:** Amir Temur, tuzuklar, saltanat, dargoh, devon, adolat, mashvarat, ulush, kengash, ijtimoiy tabaqalar, raiyat.

Amir Temur – buyuk sohibqiron, kuragi yerga tegmagan sarkarda, markazlashgan davlat arbobi, qonunshunos, shu bilan birga el-yurtini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan inson.

Amir Temur oʻz zamonining talabidan kelib chiqqan holda davlat va saltanat boshqaruvini mukammallashtirdi. Unga yangicha ruh va mazmun berdi. Amir Temur davlatining tarkibiy tuzilishi harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan. Sohibqiron saltanat boshqaruvida barcha ijtimoiy tabaqalar manfaatini taʼminlashni, jamiyat rivojini koʻzlagan.

Amir Temur hayotlik davridayoq uning harbiy sanʼati va saltanat boshqaruvi haqida maxsus asar “Temur tuzuklari” ni yaratadi. “Temur tuzuklari” da davlat va saltanatni boshqarishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalari faoliyatlari haqida, ularning tutumi va vazifalari, vazirlar va qoʻshin boshliqlarini tayinlash tartiblari haqida soʻz boradi.

“Tuzuklar”da saltanat boshqaruviga alohida urgʻu berilgan boʻlib, “Saltanat ishlarida toʻrt narsaga amal qilgil, yaʼni:

1. Kengash.
2. Mashvarat-u maslahat.
3. Qatʼiy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik.
4. Ehtiyotkorlik.

“Mashvarat” – davlat arboblari bilan oʻtkaziladigan maslahat kengashi. Chunki, kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari notoʻgʻri boʻlgan johil odamga qiyos qilish mumkin: uning aytgan soʻzlari va qilgan ishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgay. Shunday ekan, saltanatni boshqarishda mashvarat-u maslahat va tadbirkorlik bilan ish yurutgin, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon boʻlmagaysan. Shuni ham bilish kerakim, saltanat ishlarining bir qismi sabr-u toqat bilan boʻlgay, yana bir qismi esa bilib-bilmaslikka koʻrib-koʻrmaslikka solish bilan bitur. Xullas, bajarilishi shart boʻlgan tadbirlarning taʼrifidan va zikridan soʻng, qatʼiylik, sabr, chidamlilik, sogʻlig-u sergaklik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilur” [1].

Bundan koʻrinib turibdiki, buyuk sarkarda saltanatni boshqarishda hamisha oʻzining aʼyonlari, amaldorlari va maslahatchilari bilan birlikda, hamjihatlikda ish olib borgan. Chunki Amir Temur atrofida tadbirkor, fozillar-u olimlar toʻplangan edi. Sohibqiron “Temur tuzuklari” da “Davlat ishlarining toʻqqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirilur”[2] deb aytgan. Shu oʻrinda quyidagi hikoyani keltiramiz: “Qarshi qalʼasini zabt eta olmay dilga qaygʻu tugib qaytmoqda edim. Qizildaryodan kechib bir qishloqqa qoʻndik. Men bir kulbani ixtiyor etdim. Unda ushoqqina kampir yashar, tirikchiligi yolgʻiz echki erkan. Men momodan biror ovqat qilib bermoqni oʻtindim. Koʻp oʻtmay ogʻoch tovoqda suzilgan atala dasturxonda paydo boʻldi. Och erdim. Ogʻoch qoshiqni tovoqdagi atalaga moʻldirib, yutoqib yegan edim, ogʻzi-tilim kuygandan kuydi. Shunda momo dedi:

- Sen Amir Temurga oʻxshash shoshqaloqlardan ekansan.
- Temurbekning shoshqaloqligini qayerdan bildingiz momo, – soʻradim.

– Eshitishimcha, Amir Temur Qarshi qalʼasiga tik borib uni ololmabdi. Magarki, avval qalʼa atrofida kichik-kichik qishloqlarni egallab, kuch toʻplab, soʻng qalʼaga hujum qilmoq lozim edi. U esa bir yoʻla beklikni olmqchi boʻldi-yu, shashti sindi... Shunga oʻxshab sen ham shoshding va ogʻzingni kuydirding.

Shunda xatoyimni anglaganday boʻldim va dedim:

– Darxon momo, oʻsha shoshgich Amir Temur mendirman. Tanbehingizni bosh ustiga oldim. Tilang tilagingizni...

Darxon momo odamlar uchun ariq qazib suv chiqarib berishni soʻradi. Oradan koʻp oʻtmay



Tanqos daryosidan ariq qazib, suv chiqarib berdim.

“Tuzuk”: Raiyat ahvolidan oqoh bo‘ldim, ulug‘larini og‘a qatorida, kichiklarini farzand o‘rnida ko‘rdim [3].

“Raiyat” – biror podsho yoki xonga qarashli aholi.

Amir Temur saltanat boshqaruvida hamisha o‘z davlatidagi aholining ahvolidan xabar olgan, ularning arzlarini eshitgan, muammolarini hal qilib bergan.

Sohibqiron Amir Temur yirik markazlashgan davlat tuzib, bu ulkan hududda yashovchi xalqlarning birlashtirishi ularning taqdiriga ijobiy ta‘sir etdi. Poytaxt Samarqand mo‘g‘ullar bosqini arafasida butunlay vayron etilgan edi. Amir Temur poytaxt Samarqandni tevarak atrofni oltita yangi qal‘alar bilan o‘rab chiqdi.

Sohibqironning “Kuch – adolatdadir” degan so‘zlari uning ulkan saltanatni mohirona, aql-zakovat va adolat bilan boshqarganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temur saltanatni boshqarish va harbiy sohada o‘ziga xos usul yaratib, shu asosda barpo qilgan davlati bilan butun dunyoni lol qoldirdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ахмедов Б., Аминов А. Амир Темур ўғитлари. – Т.: Наврўз, 1992. – Б.10.
2. Ахмедов Б., Аминов А. Амир Темур ўғитлари. – Т.: Наврўз, 1992. – Б.11.
3. Темур тузуклари. – Т.: Шарқ, 1992.



## TEMURIYLAR DAVRI TARIXI TARIXSHUNOSLIGI.

**Otajonova Shoir Sa'dullayevna**

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi  
4-son ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim  
maktabi Tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Buyuk Turon tuprog'i Jahon sivilizatsiyasi rivojlangan qadimiy o'choqlardan biri bo'lganligi tufayli ham bu yerda necha bor renesans-uyg'onish jarayoni yuz berdi. Ammo, Mustaqillik davrigacha Turon tuprog'ida rivojlangan madaniy va ilmiy jarayonlarni o'rgangan g'arb olimlari bu yuksak sivilizatsiyasining ildizlaridan bexabarligi uchun Turon sivilizatsiyasini Eron madaniyatining bir bo'lagi deb, tahlil qilishar edi.

**Kalit so'zlar.** Amir Temur, G'iyosiddin Ali, Nizomiddin Jomiy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Temuriylar davri, feodalizm, G'arbiy Yevropa, renesans, forsiy til.

Turonlik allomalarni, arab yoki fors allomalari, deb hisoblar edilar. Bu hol Turon tuprog'ida saqlanib qolgan boy arxeologik yodgorliklarning va jahonning mashhur kutubxonalaridagi noyob qo'lyozmalarining kam o'rganilganligi tufayli yuz bergan edi. Bugungi kunga kelib, ahvol tubdan o'zgardi. Endi shuni qat'iy ayta olamizki, Turonning yuksak sivilizatsiyasi ildizlari hech bir chekka o'lkaga borib taqalmaydi, uning ildizlari shu yerdan o'sib chiqqandir. Aksincha, Turon sivilizatsiyasining shu lasi ko'pgina sharq mamlakatlarida ham madaniyat, san'at va tarixshunoslik kabi, barcha fan tarmoqlarining rivojlanishiga turtki bo'lgandi.

G'arb olimlarining yaratgan o'lchovlari bilan hisoblaydigan bo'lsak renesans – uyg'onish jarayoni bu san'at, fan va madaniyatning yuksak darajada rivojlanishi demakdir. G'arb mamlakatlarida va sharqda yuz bergan renesans jarayonining tahlil qilinishi shuni ko'rsatadiki, bu ikki geografik regionlardagi uyg'onish jarayonlari bir-birlaridan sezilarli farq qiladi. XIV asrning oxirlarida dastlab Italiyada, XV-XVI asrlarda G'arbiy Yevropada yuz bergan renesans jarayoni bu mamlakatlarda hukm surgan feodalizm va uning mafkurasiga qattik zarba berib, inkor etib, burjua manfaatlarini himoya qilish va kuchaytirish evaziga yuzaga chiqqan bo'lsa Turondan Buyuk Temuriylar davrida yuz bergan renesans jarayoni o'tmishdagi barcha ma'naviy qadriyatlarni tiklash va uni yanada yangi g'oyalar hamda qarashlar bilan boyitish evaziga yuz berdi. SHuni ta'kidlashimiz kerakki, Sharq renesansi ham g'arb renesansi kabi o'sha mamlakatlarda bir paytlar yuz bergan, gullab yashnagan antik davrdagi yuksak madaniy va ilmiy meroslardan oziqlanadi.

Temuriylar davrida Turonda yuksalish jarayonining yuz berishiga asosiy sabab bu davrda insonning har tomonlama rivojlanishi va har bir kishiga o'z qobiliyatini amalda ko'rsatishga shart-sharoitlar yaratilganigidadir. Temuriy hukmdorlar nafaqat tirik insonlarga, balki o'tmishda yashab o'tgan allomalar va aziz-avliyolarning xotiralarini abadiylashtirishga ham g'amxo'rliklik qildilarki, bu hol odamlar ongida ezgu xizmatlar qilganlar hech qachon unutilmas ekanlar, degan tushunchalar paydo bo'lishiga olib keldi. Bugun tarixiy bilimlarning bosqichlarini o'rganar ekanmiz, darhaqiqat, Temuriylar davrida o'zining yuksak cho'qqilariga erishgan madaniy sohalarga e'tibor beradigan bo'lsak, temuriy hukmdorlar boshqargan mamlakatlarda shaharsozlik, me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik, zardo'zlik, metallga badiiy ishlov berish, xattotlik, ilmu fan, adabiyot, hunarmandchilik rivojlanganligining guvohi bo'lamiz. Yuqorida sanab o'tilgan sohalar nafaqat poytaxtlarda, davlatlarning eng chekka o'lkalarida ham gurkirab rivojlandi hamda qo'shni mamlakatlarga yoyildi. Ayrim olimlar Temuriylar sulolasining inqirozi bilan ular yaratgan renesans ham barham topgan degan fikrlarni aytganlar. Ammo tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, temuriylar tarix sahnasidan tutganlaridan so'ng ham ular yaratgan renesans Turon, Xuroson va Hindistonda uzoq asrlar mobaynida shu la sohib turadi.

Amir Temur buyuk sarkarda, kuragi yerga tegmagan, yengilmas fotihdir. Amir Temur – insoniyat tarixida eng nodir hodisa – renesansni yuzaga chiqarib, amalga oshirgan ulug' zotdir! Amir Temur daholigi tarixini ilk bor uning zamondoshlari G'iyosiddin Ali, Nizomiddin Jomiy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Hofiz Abro', Ibn Arabshoh va boshqalar yozib qoldirgan. Buyuk shaxslar hamisha tarixshunoslik ilmining diqqat markazida bo'lgan.

Amir Temur vafotidan (1405 yil 18 fevral) keyin 1409 yilgacha o'zaro kurash davom etdi. SHohruh Mirzo (1409-1447), Mirzo Ulug'bek (1409-1449), Sulton Abu Said Mirzo (1451-1469), Sulton Husayi Mirzo (1459-1506) davrida davlat nisbatan markazlashgan edi va xalqaro obro'ga



ham ega edi.

XV asrning 80-yillaridan boshlab, o`zaro hamjihatlik juda susaydi. Movarounnahrning bir o`zida deyarli uchta mustaqil davlat bo`lib, ularda Sulton Abu Said Mirzoning o`g`illari Sulton Ahmad Mirzo Samarqandda, Umarshayx Mirzo Farg`onada va Sulton Mahmud Mirzo Hisor, Xuttalon hamda Badaxshonda hokimi mutlaq hisoblanar edilar.

Bu davrga kelib, avval oddiy xalq orasida, asta-sekin olimlar va davlat ayonlari va rahbarlari orasida arab tili bilan forsiy va turkiy tillaridan foydalanilishi natijasida arab tili din va diniy bilimlar tiliga aylandi. SHE`riyat va tarixda forsiy va turkiy tillar ma`lum mavqega ega bo`lib, ularda ilmiy, badiiy va tarixiy asarlar yaratildi, davlat hujjatlari yuritila boshlandi. Bora-bora forsiy til davlat tili darajasiga ko`tarilib, bu tilda juda katta hududda badiiy va tarixiy asarlar yaratildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.**

1. Amir Temur va Ulug`bek zamondoshlari xotirasida: (Risola) /B.Ahmedov, U.Uvatov, G`.Karimov va boshqalar. –T.: O`qituvchi, 1996, -312 bet.
2. Muhammadjonov A. Temur va Temuriylar saltanati. –T.; Qomuslar Bosh tahririyati. 1994, -156 bet.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



## MARKAZIY OSIYO – JAHON SIVILIZATSIYASINING AJRALMAS QISMI.

**Razzoqova Gavharoy Hikmatulloeyvna**

Navoiy viloyati Zarafshon shahar

2-umumiy o'rtta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** O'zbekiston hududi eng qadimgi davrlardan boshlab jahon sivilizatsiyasining o'choqlaridan biri bo'lib kelgan. Markaziy Osiyo, shu jumladan O'zbekiston hududlarida olib borilayotgan tadqiqot ishlarining ko'lami va natijalari bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

**Kalit so'zlar.** Ch.Darvin, F.Engels, sivilizatsiya, tamaddun, Movarounnahr, Qadimda Turon, Markaziy Osiyo.

Qadimda Turon, o'rtta asrlarda Movarounnahr, keyinchalik Turkiston, O'rtta Osiyo, Markaziy Osiyo deb atalgan hudud insoniyat sivilizatsiyasi ilk o'choqlaridan biri bo'lgan. Arxeologlar va boshqa olimlar o'lkamiz o'tmishini taqiq etib, bu makon jahon sivilizatsiyasining o'choqlaridan biri ekanligini ta'kidlamogdalar. I.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida "Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat SHarq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini jahon tan olmoqda",– deydi. "Sivilizatsiya" so'zi lotinchadan olingan bo'lib, u hozirgi zamonda insoniyatning komillikka, yetuklikka intilish mazmunida talqin etiladi, shuningdek u inson hayoti uchun qulayliklar yaratish jarayonini ifodalovchi tushuncha hamdir. Adabiyotda bu so'z "tamaddun" deb ham ataladi va madaniy hayotga, taraqqiyotga erishuv jarayoni ma'nosida ishlatiladi. qomusiy kitoblarda sivilizatsiya–jamiyat taraqqiyoti jarayonida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar, shuningdek ularni yanada ko'paytirib va takomillashtirib borish usullarining majmui, deyiladi. Demak, sivilizatsiya insoniyat taraqqiyotining mahsuli va ayni paytda zaminidir. Sivilizatsiya qadimda yer kurrasining turli hududlarida mustaqil ravishda paydo bo'lgangan va shu sababdan uning o'ziga xos ko'rinishlari mavjud. Zamonlar o'tib bu mahalliy sivilizatsiyalarning bir qator xususiyatlari boshqa hududlardagi taraqqiyot belgilari bilan qorishib, umuminsoniy sivilizatsiya vujudga kelgan. Asrlar osha bu madaniyat darajasi oshib borgan, takomillashgan, yangi cho'qqilarga erishgan. Olimlarimiz xulosalari, ko'plab ashyoviy dalillardan bilamizki, geografik joylashuvi, iqlimi va boshqa qulayliklari tufayli O'zbekiston insoniyatning qadimgi makonlaridan biri bo'lgan. Yer yuzida insoniyat paydo bo'lishi haqida turlicha qarashlar, fikrlar, taxminlar mavjud. Masalan, bir guruh olimlar (Ch. Darvin, F.Engels) odam maymundan tarqalgan va bunda asosiy rolni mehnat o'ynagan deyishsa, boshqa bir guruh olimlar, shuningdek, din odamni xudo yaratgan deb ta'lim beradi. Xatto insoniyat yerga bir vaqtlar o'zga sayyoradan kelgan degan g'oyalar ham yo'q emas. Shu bilan birga haligacha odamning paydo bo'lishi to'g'risida aniq ilmiy asoslangan dalil isbot yo'q. SHunday ekan, biz bugungi mavzuimizda tarixiy voqea va xodisalarni yoritishda tarixiylik, haqqoniylik va ilmiylik tamoyillariga amal qilib, mavzuni tushuntirishga harakat qilamiz. Uzoq asrlar davomida qadimgi ajdodlarimiz asta–sekin atrof dunyo haqida tasavvur hosil qilganlar, tabiiy muhitga moslasha borganlar. Hayot uchun ko'rash jarayonida qadimgi odamlar turli mehnat qurollarini yaratganlar, ularni takomillashtirganlar, tabiat ne'matlaridan to'larok foydalanishga intilganlar. Tosh asridan tortib to bugunga qadar bo'lgan o'ta noyob va ahamiyatli ashyolar mamlakatimiz hududlarida madaniy–ma'naviy va ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyot qadimda paydo bo'lganligi va uning rivojlanishi uzluksiz davom etganligini tasdiqlaydi. Insoniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi (antropogenez) uzoq davom etgan tarixiy jarayondir. Uning bosib o'tgan davrlari, ya'ni shakllanishi, irq'larga ajralishi, ma'naviyati, madaniyati, san'ati, turmush tarzi, umuman tarixiy taraqqiyotda erishgan yutuqlari beqiyosdir. Shu ma'noda insoniyatning eng qadimgi davrlardan to hozirgi kunlarga bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'li, qisqa qilib aytganda "sivilizatsiya" deyiladi. Insoniyat sivilizatsiyasi uzoq davom etgan jarayon bulib, ayrim tadqiqotlarda u bundan 3-3,5 mln yil boshlangan (ingliz ota-bola Liki) deyilsa, boshqalarda 1 mln. yil 700-600 ming yil (E.Dyubua), D.Blekda 600-500 ming yil deyiladi. Bunday odamlar fanda "Zinjantrop"- ish-bilarmon odamlar va Avstralopitek (Janub odami), "pitekantrop" (maymun odam), "sinantrop" (Xitoy odami) kabi nomlar bilan tadqiq qilingan, o'rganilgan. Hozirgi paytda Markaziy Osiyo hududida ibtidoiy jamiyatning rivojlanish bosqichlari quyidagi davrlarga bo'linadi: 1.Paleolit ("palayos"-qadimgi, "litos"-tosh) davri; bundan taxminan 1 million yil ilgari boshlanib, 15-12 ming yil ilgari tugaydi; o'z navbatida bu davr uchga bo'linadi; a) ilk paleolit-(Ashel') davri, 1



million - 100 - ming yillikni o'z ichiga oladi; b) o'rta paleolit-(Mustʼe) davri, mil. avv. 100-40 - ming yilliklar; v) so'nggi paleolit-mil. avv. 40-12 - ming yilliklar; 2. Mezolit ("mezos"-o'rta, "litos"-tosh) miloddan avvalgi 12-7 - ming yilliklar. 3. Neolit ("neos"-yangi, "litos" tosh) miloddan avvalgi 6-4 - ming yilliklar. 4. Eneolit (mis-tosh davri)-miloddan avvalgi 4 - ming yillikning oxiri 3 - ming yillikning boshi. 5. Bronza davri-miloddan avvalgi 3-2 - ming yilliklar. 6. Temir davri-miloddan avvalgi 1-ming yillikning boshlaridan. O'zbekiston hududlaridagi eng qadimgi odamlarning manzilgohlari Farg'ona vodiysidagi Selung'ur, Toshkent viloyatidagi Ko'lbuloq, Buxorodagi Uchtut makonlaridan topilgan. Bu davr odamlari toshlardan qo'pol qurollar (chopperlar) yasab, termachilik va jamoa bo'lib ov qilish bilan shug'ullangan. Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqliy jihatdan ham hozirgi odamlardan tubdan farq qilgan. Ular tabiat oldida ojiz bo'lib, faqat tayyor mahsulotlarni o'zlashtirganlar. Ular na diniy tushunchani, na dehqonchilikni va na chorvachilikni bilganlar. Yaqin yillargacha O'zbekiston hududida odamlar bundan 100 ming yillar ilgari yashay boshlagan deb hisoblanardi. Biroq o'tgan asrning 80-yillarida arxeolog olim U. Islomov boshchiligidagi tadqiqotchilar Farg'ona vodiysidagi Selengur (So'xtumani) g'oridan paleolit davriga oid ajdodlarimiz yashagan joyni topgach, fikrlar o'zgardi. Ilk paleolit davriga oid Selungurda 13 ta madaniy qatlam aniqlandi. Bu yerdagi topilmalarning yoshi 1 mln. yildan ziyodroq. Bu yerdan topilgan odam jag' va yelka suyaklari, tishlari xududimizda "fergantrop" deb nomlangan odamlar yashaganligi va O'zbekiston haqiqatdan ham insoniyat sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri ekanligini isbotladi. Toshkent viloyatidagi Obirahmat, Samarqand viloyatidagi qo'tirbuloq makonlari ham paleolit davriga oid bo'lib, ularning birinchisidan 21 ta, ikkinchisidan 5 ta madaniy qatlam topib o'rganilgan. Bu joylarda ko'plab tosh qurollardan tashqari fil, bug'u, yovvoyi ot, quyon, echki, to'ng'iz, jayron, arxar kabi xayvon suyaklari, gulxan, kul, ko'mir qoldiqlari ham topilgan. Bu inson uzoq vaqtlar davomida mazkur makonlarda yashaganligidan dalolat beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1998.
2. Eshov B. Sivilizatsiya tizimida ilk shaharlar. Toshkent, 2005.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



## TARIX DARSLARIDA BADIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH

**Xodjayeva Guzal Asatovna**  
Navoiy viloyati Karmana tumani  
5-umumta'lim maktabi  
tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada tarix darslarida o'quvchilarda tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyalarni shakllantirishda badiiy adabiyotdan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy obraz, tipik obraz, «Amir Temur», «Sarbadorlar», «Amir Temur», «Ulug' saltanat» tetroligiyasi, «Sohibqiron va alloma», «Amir Temur».

Tarixiy-badiiy adabiyotlar tarixiy jarayonlarni o'zlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Tarixiy-badiiy adabiyotlardan foydalanishda o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini inobatga olish muhimdir. Badiiy adabiyot obrazlaridan foydalanish o'qituvchi bayonining tarbiyaviy ahamiyatini oshirish bilan birga uning esda qolishini, darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi, hamdao'rganilayotgan tarixiy davr haqida to'liq tushuncha va tarixiy tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi. Ma'lum davrning ijtimoiy hodisalarini real aks ettiruvchi haqiqiy badiiy obraz, tipik obrazlar o'sha ijtimoiy hodisaning mohiyatini ifodalaydi.

O'qituvchi bayonida badiiy adabiyotdan olingan lavhalari bayonning ta'sirchan bo'lishini ham ta'minlaydi, o'rganilayotgan tarixiy voqealarga nisbatan o'quvchilarda xayrixoxlik, zavqlanish, afsuslanish kayfiyatlarini, nafrat yoki hayrat tuyg'ularini tug'diradi.

*O'qituvchi badiiy adabiyotni tanlashda materialning ta'lim-tarbiyaviy jihatdan qimmatini, shuningdek tarixiy hodisalarning naqadar haqqoniy real va ilmiy qilib yoritilganligini e'tiborga olishi talab etiladi.*

O'qituvchi o'z bayonida badiiy adabiyotlardan foydalanish bilan birga o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari badiiy asarlarni o'qishlari ustidan doimiy nazorat olib boradi.

Badiiy adabiyotning qimmatini o'quvchi voqelikni adibning iste'dodi darajasida idrok etishga, uni ko'zi bilan ko'rishga, uning shaxsi orqali, ma'naviy dunyosi orqali tasavvur etishga, u olg'a surgan o'z amaliy faoliyatida ongli ravishda amal qilishga erishishi bilan belgilanadi. O'quvchi asarda tasvirlangan timsollar galereyasi va badiiy vositalarni faqat kuzatuvchisiga aylanmasligi, balki adib olg'a surgan ta'lim-tarbiyaviy g'oyani qanday natijaga erishganligi nuqtai nazaridan baholashga o'rgangan taqdirdagina uning mohiyatini to'liq, chuqur anglab etishi muqarrar.

Badiiy asarni to'g'ri tanlay bilish ham asar g'oyasini ta'lim-tarbiyaviy tomondan chuqur o'zlashtirishning muhim omillaridan biri bo'lib, uni tanlashda ma'lum mezonlarga asoslaniladi, ya'ni badiiy asarning yuksak g'oyaviy-badiiy qimmatini, adib ijodida asarning xarakterli o'rni (asosan yuqori sinflarda): asarning yaratilgan va o'rganilayotgan davr uchun ahamiyati (bu ham asosan yuqori sinflarda hisobga olinadi); badiiy asarning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi xususiyati; badiiy asarning o'quvchi yoshiga mosligi, munosibligi; badiiy asarning o'quvchi yoshiga mosligi, munosibligi; o'quvchida qiziqish uyg'otishi; o'quvchining ma'naviy qiziqishi; talabi, ehtiyojlariga javob bera olish darajasidan iboratdir.

O'qituvchi badiiy adabiyotni tanlashda materialning ta'lim-tarbiya jihatidan qimmatini tarixiy hodisalarning naqadar haqqoniy real va ilmiy qilib yoritilganligini e'tiborga oladi.

O'qituvchi tarix darslarida foydalanish uchun badiiy adabiyotdan:

- a) ta'lim tizimi dasturida ko'zda tutilgan tarixiy voqealarning tasviriga;
- b) tarixiy arboblarning rolini ko'rsatishga;
- v) muhim tarixiy voqealar bo'lib o'tgan joylarni va u erlarning aniq sharoitini tasvirlashga va sh. k. larga bag'ishlangan asarlarni tanlaydi.

Shu jihatdan badiiy adabiyotning yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashdagi ahamiyati katta bo'lib, u nafaqat ta'lim beradi balki tarbiyalaydi ham.

Badiiy adabiyotning qimmatini o'quvchi voqelikni adibning iste'dodi darajasida idrok etishga, uni ko'zi bilan ko'rishga, uning shaxsi orqali, ma'naviy dunyosi orqali tasavvur etishga, u olg'a surgan o'z amaliy faoliyatida ongli ravishda amal qilishga erishishi bilan belgilanadi.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(3-қисм)**

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2021

**Контакт редакций научных журналов.** [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000